

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi” kafedrasি

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ta'lif yo'naliishi 5111600 – “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari huquq
ta'lifi”**

Mavzu: “Millatlararo totuvlik g'oyasi va uning O'zbekistonda qaror
toptirish masalalari”

Bajardi:

Tarix fakulteti 4-kurs talabasi:

Hasanova Iroda Normurtovna

Ilmiy rahbar:

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'lifi” kafedrasи mudiri:

f.f.n. U.Imomov

Navoiy -2015

MUNDARIJA

KIRISH

I. BOB. “MILLAT” VA “MILLATLARARO TOTUVLIK”

TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHIYATI

1.1.“Millat” tushunchasining mazmun-mohiyati

1.2. “Millatlararo totuvlik” tushunchasining mazmuni

II. BOB. O’ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI QAROR TOPTIRISH MASALALARI

2.1. O’zbekistonda ko’pmillatlilikning yuzaga kelishi.

2.2. Mustaqillik davrida O’zbekistonda millatlararo totuvlikning qaror topishi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarblii: Milliy va millatlararo munosabatlarga taalluqli bo’lgan masalalar jamiyatimiz taraqqiyotida xamma vaqt muxim o’rin egallab kelgan va hozir ham shunday bo’lib kelmoqda. Bu bejiz emas, albatta. CHunki mustaqil davlatimizning sobit qadam rivojlanishi, uning istiqboli ko’p jixatdan milliy va millatlararo munosabatlarning uyg’unligi bilan bevosita bog’liqdir.

Sobiq ittifoq davrida ro’y bergen qiyinchiliklar, bir talay chigalliliklar, o’ta keskinlashib ketgan ziddiyatlar mamlakatimizdagi ahvolni behad murakkablashtirdi, kishilar turmushini mushkullashtirdi, oshkorolik va demokratiyani, iqtisodiy rivojlantirishimizni tang ahvolga solib qo’ydi. Hozirgi paytda jamiyatimizning barcha sohalarida o’tkazilayotgan isloxaatlarning taqdiri, mamlakatimizning kelajagi ko’p jixatdan millatlararo munosabatlar qanday tarkib topishiga, uzoq davrlar davomida yig’ilib qolgan muammolarni zudlik bilan hal etilishiga bog’liq. “SHu tufayli- deydi I. A. Karimov, - millatlararo va elatlar ichidagi o’zaro aloqalar muammolari strategik ahamiyatga ega bo’lib bormoqda va mintaqada davlatlararo munosabatlarni yo’lga qo’yishda alohida e’tibor berishni talab qilmoqda.”¹

Mustaqillik nafaqat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy, balki millatlararo munosabatlarni hozirgi zamon talablariga mos rivojlantirishni ham talab qiladi. Mustaqillik, keng qamrovli islohatlar, demokratiya va oshkorolikni rivojlantirish, milliy masalaga, milliy tillar va madaniyatlar, milliy urf-odatlar, milliy qadryatlarga, o’tmish tariximiz, madaniy merosga, diniy qadryatlarga, xullas, milliy va millatlararo munosabatlarga bevosita taalluqli bo’lgan murakkab muammaolarni hal qilish uchun keng yo’l va istiqbol ochib berdi. Buning uchun zarur bo’lgan shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratib berdi.

¹ Karimov I. A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida : havfsizlikga tahtid, barqororlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T. : “O’zbekiston”, 1997 y, 76-77 betlar.

Mustaqillik milliy masalaga yangicha yondoshishni, siyqasi chiqib ketgan usullardan qat'ian voz kechishni kun tartibiga qo'ydi. Milliy va millatlararo munosabatlar masalasi bo'yicha mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish omili ularni keltirish chiqargan, chuqurlashtirib yuborgan sabablarni aniqlash va bartaraf etish yo'llarini belgilashdan, ularni yangicha siyosiy va falsafiy tafakkur asosida nazariy va amaliy jixatdan idrok etishdan iboratdir.

Jamiyat taraqqiyotining istiqboli, insonlarning baxt-saodati farovon hayot kechirishi millatlar, elatlar, barcha ijtimoiy guruxlar o'rtasidagi hamkorlik, hamjixatlik munosabatlarning takomillashuvi bilan uzviy bog'liqdir. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda ikki yuz yigirma to'qqiz davlat, o'n ikki mingdan ortiq ijtimoiy etnik birliklari mavjud. Sayyoramizdagi davlatlar asosan ikki turdan ko'p elatli va bir elatli davlatlardan tarkib topgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasida yuzdan ortiq millatlar va elatlar yashaydi. Xitoy, Hindiston, AQSH, Kanada va boshqa davlatlarda ham ko'plab ijtimoiy etnik birliklarning vakillari yashaydi. O'zbekiston Respublikasi ham ko'p elatlar davlatlar sirasiga kiradi. Unda 1989 yili o'tkazilgan aholi ro'yxatiga muvofiq 126 millat va elatlar yashaydi. Hozir esa 136 taga yetdi. yer yuzida yuz milliondan ortiq kishidan tashkil topgan millatlar ham shuningdek uning va hatto yuz kishidan iborat bo'lgan. Qabilalar va etmik guruxlar ham istiqomat qiladi. Mavjud millatlar va elatlarning 1600 tasi Osiyo va Afrika mamlakatlarda qariyb 100 tasi rivojlangan mamlakatlarda 250 tasi XX asr oxirlarida mustaqillikni e'lon qilgan. Sobiq sotsialistik mamlakatlarda yashaydi. Ijtimoiy taraqqiyotning maxsuli bo'lgan ijtimoiy etnik birliklar bir-birlaridan o'zining turmush tarzi turli tarixi madaniyati, urf-odati, iqtisodiy rivojlanishi darajasiga ko'ra farq qiladi xar bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qatiy nazar, eng avvalo, o'zining milliy ongi va psixalogeniyasi ifodalananadi. Muayyan jamiyatda istiqomat qiluvchi xar bir millatning ma'naviy qiyofasi o'sha jamiyatning moddiy ijtimoiy tarixiy sharoitlariga qarab o'zgarib boradi. Millatning ruxiy ma'naviy qiyofasi mavjud

ijtimoiy ong shakllarida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy ong progressiv shakllari har bir millat kishilarining ruxiy, ma'naviy qiyofasi asta-sekininlik bilan o'zgarib borishiga olib keladi. Mana shu o'zgarish jarayonlari tarixiy bosqichda, progressiv ham regressiv bo'lishi mumkin. Bunday tarzda ijtimoiy ong shakllarining o'zgarishlari o'z navbatida ko'p millatli davlatlarda negizida turadi. Xalqlarning milliy o'zligini anglash jarayoniga ham ijobjiy, xam salbiy ta'sir ko'rsatishi muqarrardir tarix saboqlari shundan dalolat beradiki, agar mavjud ijtimoiy etnik guruxlar o'rtasida hamjixatlik, an'anaviy uyg'unlik vujudga kelmagan bo'lsa, ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot jadallahadi. Millatlarning va ma'daniyatlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning ma'naviy aqliy boyishi uchun yaxshi manbaa bo'lib xizmat qiladi. Aksincha ko'p elatli Davlatlardagi millatlararo munosabatlarda totuvlik, xamjixatlik, uyg'unlik, xamkorlik, barqarorlik mavjud bo'lmasa ijtimoiy taraqqiyotning ravonlashiga katta putur etkazilishi tayindir. SHuning uchun ham ko'p millatli davlatlarda istiqomat qiluvchi ijtimoiy etnik birliklar o'rtasidagi munosabatlarga extiyotkorlik, ziyraklik bilan yondoshish muxim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida milliy o'zlikni anglashining o'sishi tufayli o'z davlatchiligiga ega bo'lmanan etnik guruxlar tomonidan milliy ozodlik harakatlarini keltirib chiqarishi tabbiy xoldir. Milliy ozodlik harakatlarinng asosiy maqsadi-mustamlakachilik zulmini yo'q qilish. Mustaqil milliy davlatlar tuzish, millatlarning o'z taqdirini o'zi hal qilishga erishishi, chet el davlatlarda xukmronligini tugatish, milliy qadryatlarini, odamlarning o'ziga xos xususuyatlari va an'analarini saqlab qolishga qaratilgan ob'ekt extiyojidir. "Xar qanday millat u naqadar kichik bo'lmasin insoniylikning bo'lagidir va har qanday milliy birlikning uning til. Madaniy va boshka xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi yer yuzidagi madaniy va fanning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. SHu bois xar bir etnik birlikni saqlab qolish va unga mansub odamlarning eng muxim

maqsadi bo'lishi kerak va bu maqsad, birinchi navbatda, ushbu etnik guruxlarni o'z ichiga oluvchi xar bir aholida davlatning vazifasidir"¹ - deydi Islom Karimov.

O'zbekiston xalqining etnik tarkibida tub axoli ustun mavqeni egallaydi.SHu bilan bir vaqtida respublikamiz xududida o'z madaniyati va ananasiga ega bo'lган yuzdan ziyod millat vakillari yashab turibdi . O'rta Osiyoning tub xalqlari tabiatida boshqa millatlarning vakillariga nisbatan keng fellikning mavjudligi bilan ajralib turadi. "Xalqimiz, - deydi I.A.Karimov, - va davlatimizning tarixiy xotirasida antisemitizm, irqchilik va o'zga millatga, o'zga xalqqa mensimasdan, xurmatsizlarcha munosabatning boshqacha shakllari namoyon bo'lgan sharmandali saxifalar yo'qligi bilan faxrlanadi"². Millatidan qati nazar odamlarga xayrioxlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga xandard bo'lish va o'zaro yordam ko'rsatish O'zbekiston xalqiga xos fazilatlardandir. Bu xalqimiz tinchligining asosiy manbaidir.

I.A.Karimov takidlaganidek, Markaziy Osiyoning bir xalqini boshqasiga qarama-qarshi qo'yish, milliy ustunlik mavjudligi to'g'risidagi afsonalarni tarqatish yo'lidagi xar qanday urinishlarning oldini olish lozim. Mintaqamizda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni saqlab turish uchun milliy siyosat yurgizishda quyidagilarni esdan chiqarmaslik kerak:

- tarkib topgan davlat chegaralarini ularning daxlsizligini tan olish;
- mustaqillik tufayli xalqlar milliy o'zligini anglashning rivojlanishi orqaga qaytmaydigan jarayon ekanligini xisobga olish;
- mintaqada yashayotgan xalqlarning o'zaro yaqinligi millatlararo munosabatlarda ijobiy tasir ko'rsatishini inobatga olish;

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqororlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997, 73-74 betlar.

² I. A. Karimov . O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqororlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997, 81- bet.

- mintaqada inbegratsiya jarayonlari xam barcha xalqlar ko'p millatli axolining davlat vamilliy manfaatlarning eng maqbul darajada uyg'unlashtirishiga asoslangan xolda rivojlanishini taminlash¹.

Mustaqillik davrida xalqimiz azaldan orzu qilib kelgan millatlararo totuvlik, do'stlik, xamjixatlik, tinchlikka erishgan ekanmiz, endilikda bizning oldimizda turgan dolzARB vazifa ana shu oliy ijtimoiy – siyosiy qadriyatlarni qo'ldan bermay, avaylab – asrab, ko'z qorachig'iday extiyot qilib saqlab qolish ustida doimiy xarakat qilishimiz darkor. Bunga respublikamizda yashovchi xar bir inson yoshidan, millatidan qa`tiy nazar, o'z xissasini qo'shmog'i kerak. Buning uchun Prezidentimiz atrofida jipslashib, xalq bilan bamaslaxat, bir tan bir jon bo'lib, xalol mexnat qilib mustaqillikni yanada mustaxkaxkamlashimiz darkor.

YUqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini quyidagicha deb qayd qilish mumkin:

1. Mamlakatlar ko'p millatli va bir millatli mamlakatlarga bo'linishi;
2. Millatlar o'rtaсидаги муносабатларга турли шакл ва ко'ринишда юндашилганлиги;
3. Ko'p millatli mamlakatlarda yangicha milliy siyosat millatlarning totuvligini amalga oshirilishi;
4. Ko'p millatli mamkatlarda turli millatlar o'rtaсида hamkorlik, xamjixatlik, totuvlik siyosatining amalga oshirilishining zarurligi
5. Ko'p millatli mamlakatlarda xalqlarining YAgona Vatan tuyg'usini shakllantirish zaruriyati mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Muammoning o'rGANilGANlik daroji. O'zbekistonda millatlararo totuvlik muammosi avvalo milliy g'oya bilan bog'liq holda o'rGANilGAN. Ushbu muammo millatlararo munosabatlarga bag'ishlangan bir jihat sifatida tadqiq etilgan.²

¹ Tulenov J. Falsafiy madaniyat va ma'naviy kamolat. -T.: "Mexnat", 2000, 108-bet.

²Rahmonov D.N. Milliy munosabatlar va ularning siyosiy-xuquqiy boshqarilishi (Hozirgi zamон amaliyotidan) -T.: Fan, 1990; Bobojonova D. Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik. -T.: Universitet, 1995; Millatlararo hamjihatlik-barqarorlik omili. -T.: DITAF, .1999 va b.

Millatlararo munosabatlar bilan bog'liq masalalar, milliy madaniyatlar rivojining turli jihatlari, milliy til, urf-odat va an'analar taraqqiyoti bilan bog'liq masalalar ko'plab olimlarimiz asarlarida tadqiq etilgan. G'.Najimov, Q.Xonazarov, X.SHayxova, S.SHermuxamedov, A.YUnusov, E.YUsupov, U.Qoraboyev kabi olimlarimizning ilmiy tadqiqotlari bunga misol bo'la oladi.¹

Millatlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari va uning rivojiga ta'sir etuvchi omillar bilan bog'liq masalalar esa S.Otamurodov, M.Nishonov kabi olimlarimiz asarlarida tahlil qilingan.²

R.Abdulatipov, YU.Bromley, M.Djunusov, V.Tishkov kabi oimlarning etnoijtimoiy birliklarning mohiyati tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlari ham mavzu doirasida ko'tarilgan masalalarni chuqurroq anglab yetishga xizmat qiladi.³

SHuningdek, mavzu doirasida o'rganilayotgan muammolarni tadqiq etishda A.Toynbi, E.Toffler, E.Fromm, S.Xantington kabi ijtimoiy-siyosiy fikrning yirik namoyandalari asarlari ham katta ahamiyatga ega.⁴

Lekin, shunga qaramay millatlararo totuvlikni jamiyat taraqqiyoti muammosi bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganish sohasida kam ishlar amalga oshirilgan. YOki bu borada dastlabki tadqiqotlarga qo'l urilmoqda deyish mumkin.

Bu sohada hali ko'pgina ishlarni amalga oshirish zarurligini hisobga olsak, mazkur mavzuni o'rganish, mamlakatimizda turli millat vakillari o'rtasida milliy istiqlol g'oyasini tag'ib qilish, ularning ishonch va e'tiqodiga aylanishiga doir tadqiqotlar rivojiga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

¹ Karabayev U.X. Traditsionnoye narodnoye tvorchestvo: problemy vozrojdeniya i razvitiya. – T.: Fan, 1991; Nadjimov G.N. Narodnye traditsii i kultura. –T.: O'zbekiston, 1992; Xonazarov Q. Til va dil. -T.: O'zbekiston, 1991; SHermuxamedov S. Na yazыke yedinstva. -T.: O'zbekiston, 1991; YUnusov A.M Demokratizatsiya obshchestva i vzaimodeystviye natsionalnogo i obshechechovcheskogo v razvitiu duxovnykh sennostey. Avtoref. Diss. dokt. filos. nauk. -T.: 1995; YUsupov E.YU., Tulenov J., G'ofurov Z. Milliy masala bo'yicha falsafiy suhbatlar. -T.: Fan, 1990 va boshq.

² Atamuradov S. Natsionalnoye samosoznaniye i internatsionalnoye vospitaniye. -T.: O'zbekiston, 1992; Nishanov M.N. Obnovleniye duxovnoy jizni natsiy. -T. Fan, 1991.

³ Abdulatipov R.G. CHelovek. Natsiya. Obshestvo. -M.: Politizdat, 1991; Bromley YU. Ocherki teorii etnosa. -M.: Nauka, 1983; Djunusov M.S. Natsionalizm v razlichnykh izmereniyakh. -Alma-ata, 1990; Tishkov V.A. O prirode etnicheskogo konfliktka // Svobodnaya mysl. -1993.-№ 4 va boshq.

⁴ Qarang: Toynbi A. sivilizatsiya pered sudom istorii. Sbornik.-M.: Rudolf, 2002; Fromm E. Begstvo ot svobody. CHelovek dlya sebya.-Mn.: Poppuri, 1998; Xantington S. Stolknoveniye sivilizatsiy? // Polis, 1994. №1; Toffler A. The Third Wave.-N.Y.: va boshq.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Birinchidan, millat tushunchasining mazmun moxiyatini tahlil qilamiz.

Ikkinchidan, millatlarning shakllanishi va rivojlanishini o'rganish

Uchinchidan, turli mamlakatlarda ko'p millatlilikning yuzaga kelishi masalasini tahlil qilamiz;

To'rtinchidan, sobiq ittifoqda yuritilgan milliy siyosatdagi xatolarga to'xtalamiz;

Beshinchidan, milliy munosabatlar tarixida milliy munosabatlarga turlicha yondoshuvlar bo'lganini tahlil qilamiz:

Oltinchidan, milliy munosabatlarga O'zbekistonning o'ziga xos yondoshuvini tahlil qilamiz;

Ettinchidan mustaqillik davridagi millatlar madaniyatining ravnaqini ko'rsatishga intilamiz;

Sakkizinchidan, milliy totuvlik "Yagona Vatan" tuyg'usini shakllantirishni tahlil qilamiz.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Millat tushunchasining mazmun mohiyatini bayon etamiz;

1. Millatlarning shakllanishi tarixiy taraqqiyot , barqarorlik bilan bog'liq ekanligini bayon etamiz;

2. Ko'p millatlikning O'zbekistonda shakllanishining sabablarini ko'rsatib beramiz;

3. Ittifoq milliy siyosatining xatolariga to'xtalamiz.

4. Turli xududlarda milliy munosabatlarga xilma-xil yondoshuvlar haqida fikr yuritamiz;

5. Turli xududlarda milliy munosabatlarga xilma-xil yondoshuvlar xaqida fikr yuritamiz;

6. O'zbekistonda millatlar madaniyatining ravnaqini ko'rsatib beramiz;

7. Mustaqillik davrida “YAgona Vatan” tuyg’usini shakllanayotganligini asoslaymiz.

Ishning yangiligi. Bitiruv malakaviy ishida amalga oshirilgan yangiliklar shunday iboratki, respublikamiz jahon fanida keyingi vaqtda erishilgan yutuqlar asosida millat tushunchasining ma’no-mazmuni yangicha tahlil qilingan, millatlar ijtimoiy taraqqiyotiga qarab shakllangan, inqirozga uchragan, yana qaytadan tiklanyotgani millatlararo munosabatlardagi uchta model tahlil qilingan, o’zbek modelining ustuvorligi asoslangan ko’p millatli mamlakatda turli milliy madaniyatlar ravnaqi, yagona Vatan g’oyasi tahlil qilingan. Natija shundan iboratki yuqorida sanalgan masalalardagi kamchilik, nuqsonlar ko’rsatildi, xolisona ular xaqida fikr bildirildi.

Ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishlar bayon etilgan g’oyalar, xulosa, taklif va tavsiyalar asosida aholi o’rtasida ayniqsa turli millatli, elatli jamoalarda ma’naviy – ma’rifiy tadbirlarni kuchaytirishda, millatlararo totuvlikni, barqarorlikni shakllantirishda yordam beradi.

Ishning metodologiyasi. Bitiruv malakaviy ishining metodologiyasi O’zbekiston Respublikasi I. A. Karimovning asarlari, ma’ruzalari, nutqlari tabriklari intervyulari, respublikamiz olimlarining asarlari hisoblanadi.

Ishning metodlari. Bitiruv malakaviy ishini bayon etishida umumfalsafiy metodlardan kuzatish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tarixiylik va mantiqiylik, abstraktlik va konkretlik, analogiya metodlaridan foydalanildi.

Ishning hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob sakkizta paragraf, xulosa, taklif va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo’lib, uning umumiy hajmi _____ betni tashkil etadi.

I. BOB. “MILLAT” VA “MILLATLARARO TOTUVLIK” TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHIYATI

1. 1. Millat tushunchasining mazmun-mohiyati.

“Millat” tushunchasi eng qadimiy atamalardan biri bo’lib, asrlar davomida odamlarning diqqatini o’ziga tortib kelmoqda. Bunday holatni tushunish mumkin, chunki hayotimizning xar qadamida biz millatlarga, ularning farqlariga, tillariga, urf-odatlariga, turmush tarzlariga va boshqa jixatlariga duch kelamiz. Va tabiiyki, har birimizda “millat o’zi nima, qachon va nima sababdan paydo bo’lgan, olamda nechta millat bor, ularning o’zaro farqlari nimalardan iborat?” kabi o’nlab savollar tug’iladi. Mustaqil O’zbekistonimizning har bir fuqarosi bu savollarga to’la va aniq javob olishi kerak.

“Millat” so’zi o’zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan, chunki islom dini mintaqalar bo’ylab VII-VIII asrlardan boshlab keng tarqalgandan so’ng arab tili islom dini olamining umumiy ilm -fan tiliga aylangan. SHu asrlar davomida o’zbek tiliga arab tilidan ya’ni Quroni karim va Hadisu sharif tilidan, minglab so’zlar kirib kelgan. SHularning biri “millat” so’zi edi.

Arab tilida “millat” so’zi o’tmish davrlarda “islom dinidagi xalq” ma’nosini bildirgan. Asrlar o’tmishi bilan “millat” so’zining ma’nosi asta- sekin o’zgargan

Hozirgi davrda biz, millat deganda umumiy tilda so’zlashib, bir butun umumiy hududda istiqomat qilib turgan, birga iqtisodiy hayot kechiradigan, umumiy maydoni, ma’naviy va ruhiy muhitga ega kishilarning tarixiy shakllangan barqaror birligini tushunamiz.

Demak, millatning ta’rifi anchagina murakkab va qator omil hamda jihatlarni o’z ichiga oladi, millat to’g’risida aniq va har tomonlama to’la ma’lumot olmoq uchun sakkiz amal ko’zda tutilishi kerak. Ular til, hudud, iqtisodiy hayot, madaniyat, ma’naviy, ruhiyat, tarix va barqarorlik.

Millat to'g'risida so'zlaganda, birinchi o'ringa umumiy til masalasi qo'yiladi. CHunki millat vakillari bir-birlarini tushunishlari, o'zlarning maqsadalarini aniqlashlari, bir fikr va qarorga kelishlari shart. SHu boisdan umumiy til masalasi, kishilar bir-birlarini tushunish vositasi masalasi, o'sha muxim masala. Ammo, ma'lumki, har bir til odatda turli hududiy shevalardan tashkil topgan. SHevalar umumiy milliy tilning shaxobchalari va shoxlaridir. Ular umumiy milliy tilni inkor etaolmaydilar. Ba'zida shevalar bir-birlaridan juda jiddiy farq qiladilar (masalan, Xitoy va Olmon tillarida) va shevalarda so'zlashuvchilar bir-birlarini tushunmasliklari ham mumkin. Bunaqa holatda umum milliy adabiy til shakllanadi va shevalarda so'zlashuvchilar bu umum tilni bilishlari shart.

O'zbek millatini oladigan bo'lsak, bizning umumiy milliy tilimiz mavjud. Bu tilda Abdulla Qodiriy, Fitrat, CHo'lpon va Oybeklar ijod qilganlar va hozirgi zamон o'zbek yozuvchilari, shoirlari bu tilni yanada boyitmoqdalar. O'zbek tilida xududiy shevalar ko'p. Lekin, ularning o'zaro jiddiy emas, shu bois mamlakatimizning barcha viloyatlari aholisi vakillari bir-birlarini tushunishlariga xaliquit bermaydi, o'zbek millatining rivojlanishini tezlashtiradi.

Tilning jamiyatda naqadar muhim o'rин egallab turishini shundan xam bilsak bo'ladiki, "jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi ..."

Ona tili-bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi "muqarar", - ¹deydi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov

O'zbek millatining, o'zbek tilining istiqboli haqida o'ylar ekanmiz, Prezidentimizning ana shu fikrlari diqqat doiramizda bo'lishi kerak.

Millatning ikkinchi belgisi yoki sifat alomati-uning bir butun hududda istiqomat qilishidir. Bir butun yaxlit hudud kishilarning muloqatini yengillashtiradi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishini osonlashtiradi.

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq etiqodi va buyuk kelajakga ishonchdir.-T.: "O'zbekiston", 2000, 23 bet.

Hududning sifatlari va ko'rsatkichlari millatning rivojlanishiga, bu rivojlanishning so'ratlariga salbiy yoki ijobiyligi ta'sir etishi mumkin.

O'zbek millatining hududi jaxonda eng qulay va serunum yerdan biri deyish mumkin. O'rta Osiyoning yengil o'zlashtiriladigan yeri asosan O'zbekiston hududida joylashgan. Markaziy Osiyo davlatlari joylashgan yerkarning tarixiy shakllanishi shunday bo'lganki, hozirgi paytda masalan, Qozog'iston yerlarining deyarli uchdan ikki qismi taqirlar va cho'lubiyobonlar. Qirg'iziston xududining xuddi shunchasi dengiz sathidan o'rta hisob bilan 1500 metrdan 4500 mertgacha balandlikda joylashgan, chorvachilik hamda yilqichilik qulay, ammo shaxar madaniyatini rivojlantirishga noqulay yaylovlardir. YOn qo'shnimiz-jon qo'shnimiz bo'lmish Tojikistonda Davlat hududining uchdan ikki qismida ya'ni tik qoyalar, chuqur jarliklar va osmon o'par tog'lardan iborat. Asrlar davomida biz bilan yonma-yon yashab kelayotgan Turkmanlar Davlati hududining deyarli sakson foizi Qoraqum cho'li va sahrolardir. Qo'shni davlatlardan farqli o'laroq, O'zbekistonda butunlay boshqa nisbatni ko'ramiz: milliy hududimizning sakson foizi sug'oriladigan va lalmikor yerdadir, bog'u-rog'lar ko'rkida gullab yashnayotgan qishloqlar va shaxarlardir.

O'zbekiston hududi-tabiati bizga in'om etgan beba ho boylikdir. Ana shu boisdan milliy hududimizda azaldan insoniyat madaniyatining yirik markazlaridan biri joylashgan. O'rta Osiyo madaniyatining yuragi va negizi O'zbekiston madaniyatidir. O'zbekiston hududidan tashqaridan joylashgan, lekin o'tmishda asosan o'zbek aholisiga ega bo'lgan CHimkent (hozirgi SHimkent), O'sh, Avliyota (hozirgi Taraz), Oq-Machit (hozirgi Qizil o'rda), Turkiston, Toshhovuz (hozirgi Tashauz) kabi shaharlar o'z madaniyatini O'zbekistondan tashqariga tarqatuvchi ta'sir nuqtalari bo'lib xizmat qilganlar.

Milliy hududlarimizning bunday imtiyozli tomonlari xalqimizni Markaziy Osiyoning boshqa xalqlaridan ustun bo'lishiga emas, balki ularning birlashishiga, jipslashishiga xizmat qilgan. O'zbekistonning o'nlab madrasalari va o'quv

maskanlarida minglab turkman, qozoq, qirg'iz va tojik yoshlari ta'lim olganlar,o'z bilimlari bilan Markaziy Osiyo xalqlarining umumiyligi manfaatlarga intilishlarini, umum tushuncha va dunyoqarashlarini mustaxkamlaganlar.

O'zbekiston shaxarlari, bozorlari, do'konlari, hunarmandchilik rastalari va qatorlarida qo'yishni xalqlar o'zlari ishlab chiqargan turli mollarini,o'stirib yetkazgan qora mol va yilqilarini so'yib o'rniga – uzun xil ehtiyojlarini qondiradigan narsalarni harid qilganlar. Bu fikr shu bilan tasdiqlanadi, Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi sinchiklab o'rganar ekanmiz, ularning o'rtasida nizo, qonli to'qnashuv, g'animlik davrlarini uchratmaymiz.

“O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat” deganda Prezidentimiz, jumladan, O'zbekiston hududining qulayligi, unumliligi, tabiat tomonidan in'om etilgan boyliklarni ham ko'zda tutdi ^{“1}.

Millatning o'ziga xos uchinchi xislati uning – iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan bog'liq qismlardan iboratligidandir. Bu masala ikki xil tarzda qo'yilishi mumkin.

Birinchidan, milliy hudud qismlaridan iborat bo'lishi mumkinki, qismlardan har biri iqtisodning ma'lum sohasi bo'yicha ixtisoslashib, boshqa qismlarga o'z mahsulotini beradi va ulardan o'z ehtiyojiga tegishli narsalarni oladi. Bunday holatni deyarli barcha millatlarda kuzatish mumkin. Masalan,O'zbekistonning ba'zi qismlari chorvachilik, ba'zi qismlari mevachilik yoki boshqa soha bo'yicha mutahassislashgan. SHu asosda har bir millat hududida, hududning tovar ayirboshlash mavjud. Bunday ayirboshlashni faqat davlat yo'lidan rasmiy tovar ayirboshlash tarzida faraz qilish yetarli emas.Bu jarayonning ko'pgina qismi bevosita aholi tomonidan kundalik hayot ehtiyojlari bilan shug'ullanish jarayonida amalga oshadi.Bunday jarayon va hayot kechirishga moyillik tabiiydir,chunki bunday holatda iqtisodiy chiqimlar nihoyatda kamaytiriladi. Uning eng “etuk ko'rinishi”-o'zini o'zi ta'minlovchi natural xo'jalikdir. Ammo, amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday buzuqlikka intilish yil sayin siqib chiqarilmoqda, millat

¹ Karimov I.A. O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat. –T.: “O'zbekiston”, 1992, 52-54 betlar.

qismlarining va millatlarning o'zaro bog'lanishi kengayib va mustahkamlanib bormoqda.

Millat iqtisodiy hayotining birligi va umumiyligining muhim tomonlaridan biri - millatning iqtisodiy mustaqilligini ta'min etishdir. Hozirgi zamon iqtisodiy hayoti shu qadar serqirra va jadal sur'atlar bilan amalga oshmoqdaki, har bir millatning iqtisodiy hayoti o'z milliy hududi chegaralari bilan cheklanishi mumkin emas. Tashqi iqtisodiy aloqalarsiz, tashqi savdosiz birorta ham millat yoki davlat hozirgi zamon talablari darajasida kun kechiraolmaydi. Ammo iqtisodiy hayotning asosiy tamoyil va talablaridan biri,- millat o'z davlatidan mumkin qadar ko'proq tovarni chiqarib sotsin,xalqaro bozorda pullasin va mumkin qadar kamroq tovarni chetdan sotib olsin. Bu millatni , milliy davlatni boyitishning, mamlakat farovonligiga erishishning muhim yo'llaridan biridir.

Millat chetdan qancha ko'p mol kirtsa , shuncha mablag',boylik chetga chiqib ketadi, demakdir.Va aksincha , millat o'z hududidan ko'proq tovarni xalqaro bozorga sota olsa, u shu qadar boyiydi. Buning uchun esa millat, milliy davlat xalqaro bozorda raqobat bardosh mahsulot ishlab chiqara olishi kerak.

Mustaqil O'zbekiston o'z milliy iqtisodiy siyosatini amalga oshirarkan, bu tamoyillarga amal qilmoqda.Mustaqillik yillarida O'zbekiston erishgan katta yutuqlaridan biri- mamlakatimizning bu yutug'i o'z navbatida O'zbekistonning turli qismlari orasidagi iqtisodiy munosabatlarni yanada mustahkamlaydi, o'zbek millatining birdamligi va hamjihatligini yangi darajaga ko'tardi.

Millatning tarixan tashkil topgan barqaror birlik sifatida o'ziga xos to'rtinchibelgisi uning milliy madaniyati, umumiy xulq - atvori va milliy mentalitetining mavjudligidir.Millatning bu hislatlari osmondan tushmaydi, tayyor xolda qandaydir g'ayri-tabiiy kuch tomonidan millatga in'om etilmaydi. Milliy madaniyat millatning xulq –atvori, milliy fikr yuritish usuli, ya'ni mentaliteti millatning shakllanish jarayonida ba'zida bir o'n yil, ba'zida bir necha asr

davomida yuzaga keladi. Bu hislatlar va o'ziga xos tomonlarning tez yoki sekin shakllanishi tarixiy sharoitlarga bog'liqdir.

Ma'lumki, madaniyat moddiy va ma'naviy qismlardan iborat. Ishlab chiqarish jarayoni kishilar yashab turgan muayyan xududga bog'liq bo'lgani sababli, xududning jo'g'rofiy shart-sharoitlari, o'ziga xos tomonlari moddiy ishlab chiqarish madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Ammo "madaniyat" deganda, odatda, birinchi navbatda, ma'naviy madaniyat, ya'ni adabiyot, san'at, fan, falsafa, xalq ijodi va boshqalar tushuniladi. Ma'naviy madaniyat atrof olamni bilish, aqlan o'zlatirish, uning to'g'risida ma'lum xulosaga kelish jarayonidir. Atrof olam barchamiz uchun umum makondir. Va, ayni vaqtida bu makon o'z tuzilishi, tabiat bo'yicha har bir mintaqada boshqa-boshqa. yer sathining rang-barangligi masalaning bir tomoni. Uning boshqa, ikkinchi tomoni shundan iboratki, atrof olamni, tabiatni, jamiyatni anglash, tushunish shu asosda ularning eng umumiyligini qonun va tamoyillarini belgilash xar bir xalqda va xattoki xar bir odamlar o'ziga xos bo'lishi mumkin. Chunki olam, jamiyat va insonda shu qadar turliki, ularni xar bir inson turlichalas qabul qilishi, tushunishi va tushuntirishi ham tabiiydir.

Milliy madaniyatning shakllanishida, atrof-muhit, jug'rofiy omillar, millatning tarixi, uning boshdan kechirgan voqealari va jarayonlari, unga atrof qo'shini xalqlarning ta'sirini anglashda, shu millat mutafakkir va jamoat arboblari muhim rol o'ynaydilar. Bu qoida o'zbek millati milliy madaniyatning shakllanishi jarayonida yaqqol bilindi va bilinmoqda. O'zbek milliy madaniyati mavhum, qandaydir noma'lum muhitda yuzaga kelgan va shu muhitda boyimoqda, rivojlanmoqda. Millatimizning har bir ashulasida, rivoyatida, hikoya va dostonida u yashab turgan muhit o'z aksini topadi, ishtirok etadi.

Milliy madaniyatning shakllanishi jamiyatdan tashqarida emas, balki u bilan birga, u orqali amalga oshadi. Demak, milliy madaniyatni tushunmoq uchun, millatning tarixini uning barcha pastu balandliklarini to'la bilmoq zarur. O'zbek

millatining madaniyati Amudaryo va Sirdaryo oralig'i hamda uning atrofidagi yerlarning tarixi, bu serunum yerlar, bog'u rog'lar go'zal vodiylar, ishlov berilgan million gektarlab dalalar, o'nlab va yuzlab shaharlar, madaniyat markazlari, ziyo maskanlarini yaratish, niyati ularni dushman hamlasidan himoya qilish va boyitish jarayonida shakllangan.

O'zbek milliy madaniyatining yana bir diqqatga sazovor joyi shundan iboratki, u boshqa millat madaniyatlar, shu jumladan, qo'shni xalqlar madaniyatlaridan xar bir vaqt uzilib qolgan emas, ularning eng yaxshi hislat va xossalarni qabul qilib olgan, o'ziga singdirgan. Bu jarayon hozirgi davrda yanada kengaymoqda: turkmanlarning gilam to'qishgani betakror sanati, qozoqlarning chorvachilikdagi ko'nikmalari va boshqa, xalqlarning hayotning turli sohalaridagi yutuqlari xalqimiz tomonidan o'rganilgan va o'rganilmoqda. Rudakiy, Jomiy, Sa'diyalar tojik do'stlarimiz uchun qanchalik hurmatli bo'lsa, o'zbeklar uchun shu darajada qimmatlidir. O'zbek milliy madaniyatiga Abay Qo'nonboyev, Muxtor Avezov, Mahtumquli va To'xtag'ul ta'sir ko'rsatib kelganlar. "Manas" esa O'rta Osiyo xalqlari og'zaki og'zaki ijodining eng yuksak cho'qqisi bo'lib qoladi.

Millat to'g'risida so'zlar ekanmiz, uning xulq-atvori degan iborani xam ishlatish mumkin. Millatning hulq-atvori uning muomala va uning ruhiy xususiyatlari majmuini, millatga odat bo'lib qolgan, takrorlanib turadigan xattiharakatlarini, uning ra'yini, fe'l moyilliklarini bildiradi. Millatning xulq-atvori, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, millatga tayyor holda berilmaydi, balki millatning tarixiy asta- sekin shakllanish sharoitida yuzaga keladi. Jaxon xalqlarining hayotini o'rganib, ularni qiyoslar ekanmiz, birlari qizilqon, jo'shqin, serzavq ekanligini, ba'zilari esa, aksincha, bosiq, sovuqqon, vazmin va og'ir ekanligini ko'ramiz. Bu ikki asosiy tur millatlar bilan bir qatorda bunday hislatlarni o'zida turlicha mujassamlashtirilgan boshqa millatlarni mavjud. Millatlarga mansub bunday xislat va xususiyatlarni o'rganish shuni

ko'rsatadiki, bular millatning yashash sharoitlari, muayyan o'ziga xos tarixi, boshqa millatlar bilan munosabatlari kabi konkret shart- sharoitlar bilan bog'liqdir.Bu jihatdan olganda, xuddi kishilar qanchalik har xil va turli- tuman bo'ladilar.

Albatta, sovuqqon millat orasida qizilqon kimsalar ham uchrab qoladi. Va, aksincha, qizilqon millatlar orasida sovuqqon kishilar ham uchrab turadi. Ammo, bundan "ha unday bo'lsa millatlarni ajratish qiyin ekanda " degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu masalaga keng yondoshilsa, millatlarning ma'lum bir kichik guruxi emas, balki katta guruhlari qiyoslansa, biz millatlar naqadar turli ekanining shoxidi bo'lamiz. Biz shuning uchun ham bu narsaga e'tiborni jalb etmog'imiz lozimki, millatlarning ko'ngli, fe'li naqadar nozik ekanligi ana shu xulq-atvori orqali, ayniqsa, aniq bilinadi. O'tmishda xukmron bo'lgan mafkuraning milliy masalada zaif tomoni millatlarning xulq-atvori, milliy ongi, milliy iftixorini inobatga olmaslik edi. "Har bir insonning, millatidan qat'i nazar asosiy istagi qornini to'yg'azish, yaxshi kiyinish, turar joyga ega bo'lish, o'z vaqtida tekin tibbiy yordam olish. SHu talablar qondirilsa, hech bir kishi millatini eslamaydi. SHuning uchun milliy masala o'z ahamiyatini yo'qotadi", deb o'rgatardi, u mafkura. Xolbuki, xuddi shu birlamchi extiyojlar qondirilgandan so'ng, inson o'zining kim ekanligini, bu millatning insoniyat oldidagi xizmatlari nimadan iborat ekanligini surishtira boshlaydi.

YUqorida aytilgan fikrlardan tushunish mumkinki, jamiyat qanchalik taraqqiy etgan bo'lsa, unda ilm-fanning, ma'naviyat va mafkuraning rivojlanishi uchun qulay vaziyatlar yaratilgan bo'lsa, o'sha jamiyatda milliy his, milliy iftixor, milliy o'zlik, milliy ong va milliy o'z-o'zini anglash shu darajada yuqori, boy va rang- barang bo'ladi. Rivojlangan jamiyatning rivojlanmagan jamiyatdan farqi rivojlangan jamiyatda shu hislarning yo'qligida emas, balki madaniyatli kishilar oqilona firk yuritib, bu hislarni old qatorga chiqarmasligidadir.

Millat to'g'risida so'zlaganda yana bir ko'zda tutilishi lozim bo'lgan narsa shundan iboratki, millat tarixan tashkil topgan birlikdir. Millatni ko'rsatma, qaror yoki buyruq asosida yaratib bo'lmaydi. Unga xos bo'lgan til birligi, hudud birligi, iqtisodiy hayot birligi, madaniyati, urf-odat xuquq birligi chetdan in'om etilgan tayyor narsa emas. Ular asta-sekin millatning amaliyoti jarayonida yuzaga keladi. Ana shu jarayonda milliy birlik hisi shakllanadi.

Millatning asosiy belgilaridan biri uning barqaror birlik ekanligidandir. YA'ni xar qanday revolyutsiya, inqilobiy o'zgarishlar, millatga nisbatan zo'ravonlik siyosati va majburiylik tamoyili xech bir vaqt millatni tarqatib yuborolmaydi. Aksincha, bunday tadbirlar millatni yanada jipslashtiradi. Buning yorqin misolini 1943-1944 yillarda sobiq ittifoqda milliy hududlardan majburan ko'chirilgan xalqlar misolida ko'rdik. Bular chechenlar, Qrim tatarlari, qalmoqlari, qorachoylar, ingushlar va bolqorlar edilar. Istibdod tuzumidan faqat fuqarolargina emas, balki millatlar ham doimiy iztirobda bo'lib, qo'rqish kerak edi. Ittifoqning fashistlar Germaniyasiga qarshi urushda dushman bilan hamkorlikda ayblab , bu xalqlarni majburan ko'chirib yubordilar. Ular borib joylashtirilgan yerlarda ko'chirilgan xalqlarga nisbatan davlat ko'rsatmasi bilan shunday muomala tashkil qildiki , ular asta-sekin XXI asrning boshigacha davrda qirilib yo'q bo'lib ketishlari kerak edi. Majburan ko'chirish yillarda bu xalqlar parcha-parcha qilib, katta hududlarga tarqatib tashlangan bo'lsa ham , milliy his, milliy g'oya, milliy Vatan bilan vidolashmadilar, o'z Vatanlariga qaytishlariga ishondilar. Ularga nisbatan "Sotsialistik Vatanga xiyonat qildilar" , deb ayb qo'yish butunlayin noo'rin va asossiz edi chunki chechenlar, Qrim tatarlari, ingushlar, qalmoqlar, bolqorlar, qorachoylar orasidan urushda, to majburiy ko'chirishgacha bo'lgan davrda, o'nlab qaxramonlar , minglab mohir jangchilar yetishib chiqdilar. Undan tashqari, shu narsani ham ko'zda tutmoq kerakki, bu jang insoniyat tarixidagi eng shafqatsiz urushlardan biri bo'ldi, va bu urushda xar bir millatning ichida ham qo'rkoqlar, hoinlar dushman tomoniga qochib

o'tganlar topildi. Fashistlar tomonidan general Vlasov "Rus ozodlik armiya"sinи tashkil qilganini aytib o'tish yetarli .

Istibdod davrida amalga oshirilgan "Milliy siyosat" har bir millatning ruxiy va ma'naviy darg'alari bo'lган ilg'or kishilarning "Millatchi", "YOZuvchi sinf vakili" , "O'tmishda bol'sheviklarga nisbatan muholif tashkilotda a'zo bo'lган" , "Ota-bobolari boy bo'lган" , "Og'machi", "Kommunistik g'oyalarni izchil himoya qilmagan", "Sovet tuzumini ulug'lash o'rniga o'tgan zamonlarga bag'ishlangan tarixiy asarlar yozadi" kabi turli bahonalar bilan qamoqqa olar, surgun, badarg'a qilar edi. Istibdod tuzumining bunday tadbirlaridan maqsadi millatlarni quvvatsizlantirish, ruhiy kuchini qirqish, ma'naviy ilhomdan judo etish edi, shu yo'sin millatlarning qo'shilib kelishini va millatlar o'rniga rus millati boshchiligida sovet xalqi atalmish "YAngi ijtimoiy –siyosiy birlik"ni yuzaga keltirish edi. Bunday birlik butun dunyoni sotsialistik asosda o'zgartirishda muhim rol o'yнayajak deyilardi.

Xullas tom ma'noda o'zbek millati mustaqillik yillarida yildan-yilga barqaror rivojlanib ketmoqda, bu mustaqillikning buyuk sharofatidir.

1.2. "Millatlararo totuvlik" tushunchasining mazmuni

Milliy istiqlol mafkurasininig asosiy g'oyalari va millatlararo totuvlik tushunchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bu bog'liqlikni shunda ko'ramizki g'oya, maqsadlar nafaqat ayrim insonlar, muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, davlat, jamiyatning ehtiyojlari, maqsad muddaolari, manfaatlarini, orzu intilishlarini o'zida ifoda etibgina qolmasdan, shu jamiyatda yashayotgan, turli millat va xalqlarning manfaatlariga, ularning o'zaro munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.¹

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyilari. -T.: O'zbekiston, 2000, 9-bet.

O'zbekiston mamlakatining maqsadlariga nisbatan shu mamlakatda yashayotgan har bir millat vakili befarq emas. SHu ma'noda millatlararo hamjihatlikni, o'zaro totuvlikni anglab olish talab etiladi.

Muammoni bevosita tahlil etishni avvalo "g'oya", "mafcura", "jamiyat", "ijtimoiy taraqqiyot", "millat", "millatlararo hamjihatlik", "millatlararo totuvlik" tushunchalarining ma'no mazmunini ochishdan boshlash kerak.

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tomoiyillari» nomli risolada "Insoniyat tarixi-g'oyalar tarixi" degan ibora ishlatilgan. SHu iboraning o'zida "g'oya" tushunchasiga ham ta'rif berilgan:

"G'oya-inson tafakkurining mahsuli, milliy g'oya millat taffakurining mahsulidir. Milliy g'oya-inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir.¹

Ko'rinib turibdiki, "milliy g'oya"ga millat tafakkurining mahsuli sifatida qaralmoqda. SHu o'rinda ayrim mulohazalarni bildirish mumkin.

Birinchidan, bunday yondashuvga muayyan ma'noda qo'shilish mumkin, chunki u millat fikri, tafakkurining mahsuli sifatida to'g'ri. SHu ma'noda turli millat nomlari bilan bog'liq holda ham milliy g'oyani tushunish mumkin.

Bizningcha, shu atamani ko'p millatli davlatga yoki jamiyatga tatbiqan qaraganda qanday bo'ladi degan savol tug'ilishi tabiiy. Bundan tashqari o'zaro muloqtlarda ham shu savol ko'pchilikni, xususan, boshqa millatga mansub bo'lganlarni ko'proq qiziqtirmoqda. Ayrim hollarda milliy istiqlol g'oyasi bu faqat o'zbeklarning milliy g'oyasimi yoki boshqa millatlarga ham daxldormi?-degan tarzda qo'yiladi.

Ikkinchidan, milliy istiqlol g'oyasining mazmunini tushunishda, bugun so'bir millatli davlatlarni topish qiyin ekanini, ayni paytda, "ko'p millatli"lik omilini, ularni ham shu mamlakat, Vatanga daxldorligini alohida qayd etish lozim;

¹ O'sha joyda, 9-bet

Uchinchidan, mamlakat muayyan millatning nomi bilan atalishini, demak, shu mamlakatning milliy tarkibida ustuvor ulushga ega bo’lgan, tarixan yashab kelgan va yashab kelayotgan, tub xalqlar, millatlarni ham nazarda tutadi va ”O’zbekiston xalqi” atamasining ishlatalishida o’ziga xos ma’no bor. Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida “O’zbekiston xalqini, millatidan qat’iy nazar, O’zbekiston respublikasining fuqarolari tashkil etadi”¹ degan qoida mustahkamlab qo’yilgan.

Masalaga shu jihatdan yondoshilsa, milliy istiqlol g’oyasi tushunchasining ikki muhim jihatni namoyon bo’ladi va uning ma’no mohiyatini to’liqroq tushunish imkoniyatini beradi. Demak, milliy istiqlol g’oyasi, bu bir tomondan, o’zbek millati tarixi, ma’naviy qadriyatlariga tayanishni anglatadi; ikkinchi tomondan, milliy istiqlol g’oyasi, O’zbekiston jamiyatining mafkurasi sifatida undagi “milliy” so’zi faqat bir millatni emas, balki butun bir mamlakatni, O’zbekiston jamiyati, O’zbekiston xalqining maqsad va intilishlarini, qarashlarini o’zida mujassam etishini bildiradi.

Ko’rinib turibdiki, shuning uchun milliy istiqlol g’oyasini bir tomonlama tushunish yoki “milliy” so’zini noto’g’ri talqin etish noxolis xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin. Bu esa o’z navbatida, millatlararo munosabatlarga, millatlar o’rtasidagi hamjihatlikka, totuvlikka salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

“O’zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo’lidagi bosh g’oyasi-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g’oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma’no va mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun (millatidan qat’i nazar) muqaddas bo’lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o’zida mujassam etadi”²

Bunda, quyidagi jihatlarga alohida etibor qaratish lozim. Avvalo, milliy istiqlol g’oyasi O’zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo’lidagi bosh g’oyasi ekani ta’kidlanmoqda; bundan tashqari, har bir inson uchun muqaddas bo’lgan

¹ O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O’zbekiston, 2003, 8-modda

yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etishga alohida e'tiborni qaratish lozim. Bu milliy istiqlol g'oyasining ham milliy, ham umuminsoniy negizga egaligini, o'zaro uyg'unligini bildiradi. "Vatan ravnaqi", "YUrt tinchligi", "Xalq farovonligi", "Komil inson", "Ijtimoiy hamkorlik", "Millatlararo totuvlik", "dinlararo bag'rikenglik (tolerentlik)" nazarda tutiladi. Bu g'oyalalar milliy va umuminsoniy qadriyatga aylangan va e'tirof etilgan. Bu g'oyalarni milliy istiqlol g'oyalari sifatida uning bosh g'oyasi erkinlik, ozodlik, obod va farovonlik bilan uyg'un tarzda turganligining o'zi mamlakatda yashayotgan har bir millatning maqsadlarini o'zida mujassam etadi. Bu g'oyalarda "millatlararo totuvlik" g'oyasining milliy istiqlol g'oyasining asosiy g'oyalardan biri sifatida alohida qayd etilishi ko'p millatli bo'lgan O'zbekiston uchun ham katta ahamiyatga ega.

Umumiyl ma'noda, millatlararo totuvlikka, hamjihatlikka O'zbekistonda asosiy maqsad sifatida qaralyapti. CHunki, milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadini amalga oshirishda millatlararo totuvlik, hamjihatlikka erishish asosiy omildir. Hamjihatlik, totuvlik bo'lмаган joyda ulug' maqsadlarga erishish qiyin bo'ladi. Hamjihatlikka, millatlararo totuvlikka xizmat qilmaydigan g'oyani o'z navbatida bunyodkor g'oya deb bo'lmaydi. Bunday g'oyaning maqsadi ezgulikdan yiroq bo'lib, u millatlar o'rtasiga nifoq solishi mumkin. SHuning uchun ham, 130 ga yaqin millat va elat vakillari yashayotgan O'zbekiston uchun milatlararo hamjihatlik va hamkorlikning qaror topishiga xizmat qiluvchi millatlararo totuvlik g'oyasi umuminsoniy mazmunga ega bo'lmoqda.

Endi millatlararo munosabatlarga qaytsak, millatlarning o'zaro munosabatlaridagi asosiy qoida - ularning siyosiy va huquqiy jihatdan tenglidir. Buyuk va yirik millatlarning o'z soni va imkoniyatlariga ishonib, kichik millatlarga do'q po'pisa qilib, qurok kuchi bilan zabt etish va bo'ysindirish niyatları keyingi vaqtida Vietnam, Jazoir, Afg'oniston, Abxaziya, CHecheniston, Iroq misollarida asossizligi va amalga oshmasligi isbotlandi. Sobiq SSSRning mamlakatda eng ko'p sonli millatga imtiyozlar tug'dirib boshqa millatlarni

mohiyatan kamsitish siyosati to’la ravishda o’zini fosh qildi va o’n besh mustaqil davlatga bo’linib ketishining asosiy sabablaridan biri bo’ldi.

Demak, mamlakatlarning siyosiy va huquqiy jihatdan tengligini tan olish hozirgi zamon siyosatining zarur qonun qoidasi bo’lishi shart. Ammo ayni vaqtida hozirgi zamon iqtisodi millatlar, mamlakatlar orasida o’zaro hamkorlikni talab qiladi. Bunday hamkorlik ijtimoiy taraqqiyotning millatlar gullab-yashnashining zaruriy zaminidir. O’zbekiston ham shu yo’ldan borib, tobora jahon hamjamiatiga integratsiyalashib bormoqda.

Mutaxassislar fikriga ko’ra, insoniyatning ko’p ming yillik taraqqiyoti asosan uch narsada mujassamlashgan, -umuminsoniy sivilizatsiya, bozor iqtisodiyoti va millatlar. Umuminsoniy sivilizatsiya jamiyat taraqqiyotining zamini, muhiti va asosidir. U shuning uchun ham, doimiy harakatda va rivojlanishdaki, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tayanadi, u asosida shakllanadi. Lekin bozor munosabatlarini amalga oshirib, hayotiy omilga aylantiradigan haqiqiy amaliy kuch millatlardir. Bu uch omil-sivilizatsiya, bozor iqtisodi va millatlar bir-birlari bilan chambarchas uzviy bog’langan: birisiz ikkinchisi yoki uchinchisi bo’lishi mumkin emas. SHunday ekan, hozirgi zamon insoniyat hayotini, jamiyat taraqqiyotini ta’min etmoq uchun millatlarning ravnaqi, gullab yashnashi va mustahkamlanishi tabiiy jarayondir.

Tan olib aytish zarurki, dunyoqarashdagi sotsializm mafkurasining ta’siri o’z-o’zidan yo’qolib ketmaydi. Jamiyat tarixini sinfiy kurashlar tarixi, turli tushunchalar, mafkuralar, nazariyalarning to’qnashuvi, murosasiz olishuvi sifatida yoritish va tarixga, jamiyatga shu nuqtai nazardan yondoshish yagona to’g’ri qarash deb tushuntirish vaqtি allaqachon o’tdi.

«Bizning –tojik, turkman,qirg’iz, qozoq va o’zbeklarning-tarixiy birligimiz, madaniy birligimiz, ma’naviy birligimiz, diniy birligimiz, bir so’z bilan aytganda chinakkam insoniy birligimiz haqida ko’a gapirishning xojati yo’q, -deb yozadi

I.A.Karimov. -xalqlarimizning azaliy birligi va bi-biriga intilishi har bir uyda, har bir oilada, har bir qishloqda va har bir shaharda yaqqol seziladi»¹.

Demak, endilikda jamiyat taraqqiyoti yo'llarini qidirish va eng oqil yo'llarini topish hammani qiziqtiradi va u barchaning vazifasidir. SHunday ekan, har bir masalaning hal etilish yo'llari bo'yicha o'nlab takliflar tushishi tabiiydir. Maqsad esa aniq-masalani hal etishning eng oqil yo'lini topish.

Siyosiy guruhlar, partiyalar va sinflar o'rtasida murosasiz raqobat davri hozirgi vaqtda demokratiyaning yangi ma'nosini tushunmaydigan jamiyat va davlatlarda bo'lishi mumkin. Mustaqil O'zbekiston bunday holatlardan xoli. U demokratiya qonun qoidalari asosida rivojlanmoqda.

Milliy istiqlol g'oyasi "agressiv millatchilik", "millatparastlik", "milliy biqiqlik"ni targ'ib qilish g'oyalari bilan murosa qila olmaydi, "buyuk davlatchilik shovinizmi", "kosmopolitizm" g'oyalariga nisbatan «millatparvarlik» «milliy bag'rikenglik» «milliy hamjihatlik», "millatlararo hamkorlik", "do'stlik", "millatlararo totuvlik" g'oyalarini qarshi qo'yish talab etilmoqda.

«Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» konspsiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Millatlararo hamjihatlik deganda, millatlarninig madaniyati, urf-odati, diniy e'tiqodlaridan qat'i nazar, umummaqsad yo'lida bir-birlarini tushunishlari, bir-birlarini hurmat qilishlari, birgalikda faoliyatda bo'lishlari, mushtarak maqsadlarni amalga oshirishda ularning hamkorligini tushunish mumkin.

Xullas, milliy istiqlol g'oyasi jamiyatimiz hayotida muhim o'rin tutadi. Milliy istiqlol g'oyasi miliy va umuminsoniy negizga asoslanishi tufayli O'zbekiston halqining, o'zbekning ruhiyatini o'zida to'liq ifoda etadi.

"Millatlararo totuvlik" g'oyasi turli millatlar yashayotgan ko'p millatli O'zbekiston uchun ayniqsa muhim mezondir. U turli millatlarning maqsad va

¹ Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. //Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-jild.-T.: O'zbekiston, 1996.-83b

manfaatlarini ifoda etish bilan birga ularni jipslashtirib turadi va shu ma'noda O'zbekiston oldida turgan erkin, demokratik jamiyat qurish maqsadlarini amalga oshirishda kata ahamiyat kasb etadi.

II- BOB . O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI QAROR TOPTIRISH MASALALARI

2. 1. O'zbekistonda ko'pmillatlilikning yuzaga kelishi.

O'zbekiston tarixini o'rganar ekanmiz, uning diqqatimizni tortadigan tomonlaridan biri yurtimizning, elimizning ko'p millatlilikidir qadim zamonlardan beri o'zbeklar bilan bir qatorda milliy xududimizda tojiklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, uyg'urlar, va boshqa xalqlar, millatlar vakillari istiqomat qilganlar. Ulardan tashqari elimizda qo'shni davlatlardan kelgan va bu yerda joylashib qolgan eroniylar, afg'onlar, hindlar, xitoylar bor edilar. Arab istilosidan so'ng Mavarounnahrga ko'chib kelib, shu yerda yashay boshlagan arablar Buxoro va Qashqadaryo tomonlarida o'z qishloqlarini tashkil qilgan edilar. O'rta Osiyoni Rossiya bosib olgandan so'ng mamlakatimiz xududida ruslar, ukrainlar, belaruslar, azarbajyonlar, Kavkaz xalqlari vakillari , Volga bo'yidan tatarlar, mordvalar, marilar, udmurtlar, boshqirdlar,bilan birga nemislar, bolgarlar, Vengirlar, va boshqalar. Mintaqamizda paydo bo'ldilar. Chorizm davrida arman xalqiga nisbatan amalga oshirilgan arman-azarbayjon qirg'ini siyosati natijasida o'n minglab armanlar O'zbekistonga ko'chib kelishdi.

O'zbekiston aholisi ko'pmillatliligining o'sishi uzoq tarixga ega bo'lib, bu jarayonni asosan to'rt davrga bo'lish mumkin.

Birinchi davr chorizm istilosiga bo'lган asrlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ko'pmillatlilik u asrlarda sekin –asta tashkil topgan . Ma'lumki, O'rta Osiyoni zabt etgan Iskandar Zulqarnaynning safdan chiqqan minglab jangchilari O'rta Osiyoning ko'plab iqlimi va sharoitlarini ko'rib, shu yerda o'troq bo'lib qolib ketgan. YUrtimizning ko'p millatliliği ayniqsa Buyuk ipak yulining ahamiyati oshishi bilan yanada o'sdi. SHarq bilan G'arbning muntazam aloqalarini ta'min etishga minglab kishilar o'z xayotlarini bag'ishladilar. Bu yo'l ko'p tarmoqli bulib, daraxtning ildizidek turli tomonlarga chuqurlashib kirib borgan .

Karvon egalari, xizmatchilar va xizmatkorlar yurtimizning minglab qishloqlari, mimplakat buylab joylashgan o'nlab shaharlar, hunarmandchilik markazlari, savdo-sotiq rastalarini ko'rib, bu yurtga doimiy yoki o'troq xayot kechirish uchun uzil-kesil joylashdilar. Undan tashqari, ma'naviyat, ma'rifat madaniyat manbalariga o'zlarini yaqin tutishni orzu qilgan minglab turli xalq va qabila vakillari. O'zbekistonni o'z doimiy Vatanlari sifatida tanlab, shu xududda yashab boshlaganlar. Bu jarayonlar xali O'zbekiston Rossiya tomonidan zabit etilmasdan oldin bo'lgan o'zgarishlardir. Bu narsaning ta'siri hozirgi kunlarda xam bilinib turadi. Yana shu sababdan o'zbek millatining o'rtacha etnik qiyofasi hali shakllanib ulgurgani yo'q: o'zbeklar orasida turklarga, qozoqlarga, qirg'izlarga, turkmanlarga, uyg'urlarga, afg'onlarga, eroniylarga, xindlarga o'z tashqi chizgilari bilan juda o'xshab ketadiganlar ko'p uchrab turadi. SHu jihatdan o'zbek millati boshqa millatlardan anchagina ajralib turadi. Bunday xususiyatimiz tariximiz bizga qoldirgan o'ziga xos meroslardan biridir.

O'zbekiston aholisining ko'p millatliligi o'sishishining ikkinchi tarixiy pallasi. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi jarayoni va mustamlakachilik yillari bilan bog'liqdir. Istilo natijasida yurtimiz dunyoda hududi eng katta va axolisi eng ko'p millatli davlatning bir qismiga aylandi. Elimizga boyish, yengil xayot kechirish, yangi yerlarda uziga xususiy mulk orttirish tarafdarlari ming minglab kela boshladilar. Natijada O'zbekistonning ko'pmillatlilik darajasi keskin o'zgara boshladi. 1897 yilda Rossiya imperiyasi bo'yicha birinchi marta aholi ro'yxati o'tkazildi uning yiqqan ma'lumotlarini sinchiklab o'rganishi shuni ko'rsatadiki, 1897 yilda O'zbekiston hududida yetmishta turli millatlar va elatlar vakillari istiqomat qilgan ekanlar.

YUrtimiz axolisi tarkibida turli millatlar va elatlar vakillari sonini o'sib borishi jarayonining uchinchi pallasi 1917 yil oktyabr' to'ntarishi va hokimiyatni bol'sheviklar bosib olgandan keyin boshlandi. Bu jarayon bir necha yo'nalishlarda olib borildi. Birinchidan, yangi xokimiyat o'z mavqeini mustaxkamlash va

dushman kuchlarni tor-mor qilmoq uchun O'rta Osiyoga Markaziy Rassiyadan turli xarbiy qismlarni jo'nata boshladi. Harbiylarning ko'pchiligi markaziy ko'rsatmasi yoki o'z xohishi bilan o'lkada doimiy yashay boshladi. Fuqarolar urushi tugagandan so'ng o'lkada ya'ni sanoat korxonalari qurila boshladi va ularda ishlovchilarining ko'pchiligi markazdan yuborilgan ishchilar va injener -texnik mutaxassislar edilar. O'zbekiston "sotsializmning sharqdagi mayog'i" qilmoq uchun o'lkamizda, sirasini olganda, ruslashtirish siyosati amalga oshirila boshladi . 1926 yilda o'tkazilgan axoli ro'yxati ma'lumotlariga qarab fikr yuritsak, o'lkada 91 millat va elatning vakillari istiqomat qilishi aniqlangan . Demak, 29 yil (1897-1926) oralig'ida O'zbekistonda istiqomat qilib turgan millatlar va elatlar soni 70 dan 91 gacha, ya'ni 30 foizga oshgan . qisqaroq qilib aytganda, o'ttiz yilda o'ttiz foiz o'sishni ko'rib turibmiz, desak buladi.

Navbatdagi aholi ro'yxati 1939 yilda o'tkazildi.O'tgan o'ttiz o'ch yil (1926-1959)ni nihoyatda hayajonli voqealarga to'la bo'ldi.Ularning orasida eng daxshatlisi 1941-1945 yillardagi urush edi. Insoniyat tarixida hech bir urushda hech bir davlat 1418 kun davom etgan janglarda 27 million 343 ming jangchi, zabit va fuqarosidan judo bo'lган emas. Bu urushga O'zbekistondan 1.433. 230 kishi safarbar qilingan Respublika axolisining umumiyligi soni 6,5 million bo'lган, shulardan bolalar va keksalarni chiqarib tashlasak, bu raqamikki baravar qisqaradi. Demak, 3,25 million yaroqlilardan yarmi ayollar -onalar ekanlagini inobatga olsak, 1,6-1,7 million xarbiy xizmat yoshdagi erkaklar qoladi. Xulosa shundan iboratki, O'zbekiston axolisining deyarli 22 foizi, xarbiy xizmatga yaroqlilarning 90 foizi urushga yoki ishchi batalyonlarga ketgan . SHulardan 263005 kishi xalok bulgan . 132670 kishi bedarak yo'qolgan. 60452 kishi nogiron bulib qaytgan¹. Bu urush ana shunday ayovsiz qirg'in buladi.

¹ Qarang: Karimov I.A. Turkiston umumiyligi uyimiz. -T.:O'zbekiston, 1993, 11-bet.

Sobiq Sovet davlatini qutqarib olgan omillardan biri shundan iborat buldiki, u o’z hududining favqulotda kattaligidan foydalanib, frontdan uzoq joylashgan xududlarni o’z tayanchi va qurolxonasiga aylantirdi. SHulardan biri O’zbekiston edi . O’zbekistonga mamlakatning g’arbiy qismidan, ya’ni xarbiy xarakatlarga tortilgan qismi dan sharqq, shu jumladan, O’zbekistonga minglab, zavod va fabrikalar, madaniyat muassassalari va jamoalari kuchirildi. Sanoat korxonalari odatda o’z injener texniklari va mutaxxasis ishchilari va ularning oilalari bilan kuchib kelishdilar.Undan tashqari mamlakatning urush borayotgan xarbiy qismdan yuz ming fuqaroviylar axoli O’zbekistonga va boshqa sharqiy respublika va viloyatlarga yo’l oldilar.

1941-1945 yillar urishi davrida O’zbekistonga mamlakatning g’arbiy qismidan qancha axoli kuchirilganligi xaqida aniq va rasmiy e’lon qilingan raqamlar yo’q, borlari xam manzarani to’la yorita olmaydilar, chunki shoshma shosharlik. Vaziyatlarda aniq xisob-kitob olib borilmagan lekin, 1926-1959 yillar axoli ruyxatlari oralig’ida O’zbekistonda rus axolisining salmog’i 2,7 foizdan 13,4 foizga o’sdi.Sobiq sovet tuzumi tomonidan amalga oshirilgan sanoatlashtirish,qishloq xo’jaligini jamoalashtirish, millatlarning o’zligini kuchsizlantirish va susaytirish maqsadida ularni mumkin qadar ko’proq aralashtirib yuborish siyosati o’z “meva”sini bera boshladi va yuqorida ta’kidlangan 33 yil, ya’ni 1926-1959 yillar orasida Respublika aholisining ko’pmillatliligining o’sishida haqiqiy “Revolyutsiya” yuz berdi deyishimiz mumkin. Faqat O’zbekistonning o’zida 1959-yilda yetarli bo’lmagan 104 millat va elat vakillari, shu jumladan, 1926-yilgacha O’zbekistonda birontasi ham bo’lmagan saxurlar, abazinlar, tuvalilar, buryatlar, chukchalar va boshqalar aholi tarkibida paydo bo’ldilar.

Ko’p millatlilikning o’sishida 1926-1959 yillar O’zbekiston tarixida asosiy o’rinni egallaydi,desak ortiqcha bo’lmaydi. SHu davr ichida O’zbekistonda istiqomat qiluvchi xalqlar soni 91 dan 113 gacha yetdi, o’zbeklar

O'zbekistonda 1959- yilda aholining 62,1 foizini, o'zbek emaslar esa 37,9 foizini tashkil qilar edilar.O'zbek millatining ochiq ko'ngilliligi, mehmono'stligi, bag'rikengligi, har bir kishiga millatidan qat'iy nazar, "U ham Xudo yaratgan inson" deb yaxshi ko'z bilan qarashi natijasida O'zbekistonda barcha yerni emas xalqlarning, shu jumladan, ruslarning soni va salmog'i oshib bordi.

1959-yildan boshlab O'zbekistonda yerli aholining, shu jumladan, o'zbeklarning aholi tarkibidagi salmog'i asta – sekin o'sib bormoqda. Buning sababi yerli bo'limgan aholining soni kamayishida emas. Ularning soni yil sayin, ozgina bo'lsada, oshib bormoqda. yerli aholi salmog'i ortib borishining sababi bu aholi sonining yevropaliklarga nisbatan tezroq o'sishidadir. yevropalik aholida, shu jumladan, ruslarda , har bir oilada o'rta hisob bilan 2,5 farzand bor, o'zbeklarda va boshqa yerli xalqlarda esa har bir oilada 4-5 farzand bor. Natijada, masalan, O'zbekistondagi ruslarning soni 1959- yildagi 1. 090 mingdan 1989-yilda 1.652 minggacha o'sdi, ya'ni 66 foizga ko'paydi. Xuddi shu davr ichida o'zbeklarning soni 6.015 mingdan 16.650 minggacha ya'ni 275 foizga ko'paydi.Demak, o'zbeklarning soni ruslarnikiga nisbatan besh barobar ko'proq sur'at bilan o'sgan.

YUqorida sanab o'tilgan omillar ta'sirida 1989- yilga kelib O'zbekistonda ruslarning salmog'i 8,3 foizga, 2000 yilda 6,5 foizga tushib qoldi. 1991- yilda O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingandan so'ng barcha sobiq respublikalarda jiddiy demografik jarayonlar yuz berdi, shu jumladan, rus aholisining ma'lum qismi o'z ilk Vatan Rossiya Federatsiyasiga qaytib ketishni lozim ko'rdi.O'zbekistondan ko'chib ketgan ruslarning soni va salmog'i boshqa sobiq respublikalarga nisbatan ancha oz bo'ldi; sababi shundaki O'zbekiston rahbariyati va yerli aholi ruslarga qo'pollik, chiqishtirmaslik, g'araz ko'z bilan qarash hodisalariga yo'l qo'ymaydi, chunki ruslar asosan yaxshi mutaxassislar,O'zbekistonning sanoati, aloqasi, naqliyoti va boshqa sohalari uchun

chin yurakdan mehnat qilishga tayyor kishilardir.Hatto shunday sharoitda ruslarning ma'lum qismi o'z ilk vatanini qo'msab, ona yurtiga qaytdi. Bu borada hozirgi aniq raqamlar chop etilgan emas. SHu soha bilan shu shug'ullanayotgan mutaxassislarning bildirishlaricha, 1991-1996- yillarda ko'chib ketganlarning ma'lum qismi qaytib kelgan. I. Karimov 2005-yil "Nezavisimaya" (Rossiya) gazetasining muxbiri Viktoriya Panfilovaga bergen interv'yusida shunday degan edi: "...men shu kunlarda respublikaga qaytib kelgan 70 nafar rus kishisiga fuqarolik berish to'g'risidagi farmonga imzo chekdim" ¹- degan edi.

O'zbekiston mustaqilligi 1991- yilda e'lon qilingandan so'ng bozor munosabatlari hayotga singishi jarayonida davlatimizda yangi davrga xos jarayonlar namoyon bo'la boshladi:

Birinchidan, hududimizdan ruslarning va umumiylar yevropaliklarning ko'chib ketishi jiddiy kamaydi.Albatta, ularning ma'lum qismi asta- sekin borish joylarini aniqlab,ko'chib ketmoqdalar. Bu jarayonni to'xtatish mumkin emas, chunki odamlarning jahon bo'y lab o'zlariga qulay joy izlab ko'chib ketish yoki ko'chib kelishlariga xaqlari bor. Bu demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biridir.

Ikkinchidan, ayni vaqtda O'zbekistonga ko'chib keluvchilarining soni ko'chib ketayotganlardan kam emas. Ana shu sababli ko'chib yurish tarozisining pallalari barobar,teng desak bo'ladi.

Uchinchidan, MDH miqyosidagi vaziyatni qiyoslab o'rganib,boshqa davlatlardan, ayniqsa Rossiya Federatsiyasidan ruslar bilan bir qatorda boshqa millat vakillari ham ko'chib kelmoqdalar.

Mustaqillik sharoitlarida millatlararo jarayonlarning bunday tus olishi bizni bezovta qilmaydi, chunki davlatimizda hammaga yer va suv yetarlidir.CHetdan kelsalar, barchaga eshigimiz ochiq. Xuddi shu maqsadda bozor iqtisodiyoti sharoitlarida turli chet el firmalari,birlashmali va guruhlari yil sayin ko'plab kelib

¹ Karimov I.A.Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi .-T: "O'zbekiston", 2005, 28-bet.

joylashmoqdalar. 1897 yilda O'zbekiston hududida 70 millat va elat vakillari , 1926 yilda 91, 1959-yilda 113, 1989- yilda 113, hozirgi paytda esa 136 millat va elat vakillari yashab turganligi ma'lum.

O'zbekiston hozirgi zamon davlatlari orasida eng ko'p millatlilarning biridir.

Ko'p millatlilik real xolat ekan, u davlatlar siyosatida o'z ifodasini topmasligi mumkin emas. Ko'p millatlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa-da, xar bir davlatda milliy siyosat o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini takidlash zarur. Masalan, yaqin o'tmishda amalga oshirilgan milliy siyosat xaqida ko'p yozilgan. Ammo uning moxiyatini to'laligicha anglab yetish uchun yana ko'plab tadqiqotlar olib borish kerakligi xam shubxasiz. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov iborasi bilan aytganda , “O'tmishimizni “Oqlash” ishlari umuman bajarib bo'lindi; xozir esa asosiy vazifa tarixiy taxlilni ilmiy jixatdan xolisona va xalol amalga oshirishdan iboratdir”¹.

Bunday taxlil mustaqillikning qadriga yetish, jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar, ozod yurtimizdagi millatlararo munosabatlarning xarakteri, turli millatga mansub fuqarolarimiz xayotidagi manaviy uyg'onish va madaniy yuksalish jarayonini to'g'ri xamda chuqr tushunish uchun nixoyatda muximdir. SHuni inobatga olgan xolda, juda davri milliy siyosatning ayrim jixatlariga etiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Zero, ulug' adibimiz Abdulla Qodiriy aytganlaridek,

“Moziya qaytib ish ko'rishni xayrli deydilar”.

Eng avvalo, bu davrda millatlar va elatlarning asosiy xuquqlari poymol etilganini takidlash zarur. Xususan milliy tillarda talim olish, madaniyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish kabi milliy xayot va o'zlikni saqlab qolish bilan bog'liq bo'lgan umumetiqod etilgan qoidalar sho'ro Konstitutsiyasida

¹ I.A.Karimov “O'zbekiston XXI asr busag'asida : Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqiyot kafolatlari” . – T.: “O'zbekiston”, 1997, 141-bet

belgilab qo'yilgani xolda, amaliyot millatlarni yaqin kelajakda qo'shib yuborishdek maqsadga bo'ysundirilgan edi. Unga erishish yo'lida respublikalar etnik tarkibini ataylab murakkablashtirishdek ongli, aniq mo'ljalni ko'zlab, siyosat olib borilganini aloxida qayd etish lozim.

SHu bilan birga, "CHegaralarni tozalash", "Xoinlarni jazolash" kabi shiorlar ostida butun bir xalqlarning ommaviy deportatsiya qilinishini xam ushbu yo'ldagi xarakatlarning uzviy qismi sifatida etibor etish lozim. Milliy til va madaniyatlarga bepisandlik bilan qarash xukmronlik qildi. Ayni paytda, mafkuraviy niqoblangan shovinistik siyosat olib borildi. "Millatchilik" tushunchasining mazmuni ataylab kengaytirilishi natijasida esa xar qanday millatparvarlik millatchilik deb baxolandi. Millatparvar insonlar millatchi sifatida qatag'on qilindi.

Milliy masala biron marta xam muxokama qilinmagan bo'lsada, "Millatchilikka" qarshi kurash davlat xokimiyyati va kommunistik partiya raxbarlarining doimiy diqqat markazda bo'ldi. KPSS Markaziy Komiteti 1926-1982 yillar orasida "Millatchilikka" qarshi kurashga qaratilgan 30 dan ortiq xujjati qabul qilgani xam buni tastiqlaydi.

SHo'ro xokimiyatining dastlabki yo'llarida qabul qilgan ana shunday xujjatlar mazmunini o'rganish ularda ruxoniylar, boylar, quloqlar, ziyolilirning millatchilik yo'lidan xarakatlariga qarshi kurashga chaqirish ustuvor bo'lganini ko'rsatsdi. Bu amaliyotda o'zining mudxish aks sadosini topdi. Masalan, 1937-1938 yillarda yirik "millatchi" guruxlarning fosh etilishi xamda ko'zga ko'ringan davlat va jamoat arboblarining qatag'on qilinishi bunga misol bo'la oladi. Birgina 1937-1938 yillarda Respublika raxbarlarining 70 foizi repressiya qilingani, umuman olganda esa 1937-1952 yillarda O'zbekistondan 100 ming kishi repressiya qilinib, 13 ming kishi oshib tashlangani xam mazkur davr siyosatining mudxish qiyofasini tasavvur qilish imkonini beradi¹.

¹ Alimova D. Golovonov A. XX asr – mafkura nigoxida. || "Xalq so'zi", 2002, 25- iyun.

Urushdan keyingi davrda esa fevral – patriarchal o’tmishni ideallashtirish, milliy maxdudlikka qarshi kurashish, reaksiyon anana uzoq odatlarni ulug’lashga yo’l qo’ymaslik zarurligi uqtirib kelindi. Buning natijasi o’laroq, Maqsud SHayxzoda “Jaloliddin Manguberdi”, Oybek “Alisher Navoiy”, I.Mo’mnov “Amir Temurning O’rta Osiyo tarixida tutgan o’rni va roli” asarlarini yozgani uchun o’tmishni ideallashtirishda ayblandi. Dinga bo’lgan agressiv munosabatni xam sovet davridagi milliy siyosatning uzviy qismi sifatida qarashga xaqlimiz. Zero, manaviyatning ana shunday mustaxkam asosiga zarba bermay turib, millatlarni qorishtirib yuborishdek yovuz maqsadga erishib bo’lmasligi aniq edi. SHundan kelib chiqib, ateizm xukmronlik qilgan davrda xalq qalbidan xaqiqiy etiqodni siqib chiqorishga alovida etibor berilganini qayd etish lozim. XX asr 30 – yillarida respublikada “Xudosizlar” nomi bilan o’zbek tilida jurnal nashr etildi, diniy kitoblar uyoqda tursin, arab yozuvida bitilgan xar qanday kitoblarga xam “diniylik” tamg’asi bosildi va shu tariqa xalqning tarixiy xotirasi, manaviyati, dunyo qarashi muxrlangan nodir asarlar, vo’lyozmalar yo’q qilib yuborildi.

Bunday bo’lishiga sabab – ular dinni kishilarning aql – idrokini egallash uchun kurashda o’zlarining raqibi deb xisoblar edi. SHuning uchun xam ular dinni kamsitish, ruxoniylarni yo’qotish va omon qolganlarni bo’ysundirish yo’lida keskin choralar ko’rdilar. Dinni suniy ravishda mafkuraviy kurashning o’ta qizg’in jabxalaridan biriga aylantirdilar¹. Buning oqibatiga bebahoh madaniyat namunisi – mamuriy yodgorliklar, masjidu madrasalar yer bilan yakson bo’ldi. Masalan, 1929 yildan 1939 yilgacha bo’lgan oraliqda Turkistonda 14 ming masjid buzib tashlangani manbalarda qayd etiladi.

1917 yilda Turkistonda 20 ming masjid mavjud bo’lgan bo’lsa, 1953 yilga kelib, faqat 250 ta masjid qolgan².

¹ Karimov .I. A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: Xafvsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va iaraqqiyot kafolatlari. –T.: “O’zbekiston”, 1997, 39-40 betlar.

² Nabihev A. Mustaqillik uchun kurash yohud parchalangan Turkiston tarixi. –T.: “YOzuvchi”, 1998, 91-92 betlar.

Nafaqat diniy, balki ulkan tarixiy axamiyatga ega bo'lgan yodgorliklarga bunday salbiy munosabat keyingi yo'llarda xam xukmronlik qildi. Xususan, o'tgan asrning 50 – yillaridan boshlab 20 minga yaqin yodgorlik buzib tashlandi. Farg'ona vodiysida tarixiy yodgorliklarning uchdan bir qismi saqlanib qolgan, xolos¹.

Milliy o'ziga xoslikni pisand qilmaslik, xalqlarni doimiy qo'rquv va xadik ostiga saqlashga intilish keyingi davrlarda xam davom ettirildi.

Minglab odamlar javobgarlikka tortilgan “O'zbeklar ishi” kompaniyasini uning so'nggi ko'rinishlaridan biri sifatida baxolash mumkin.

Ana shunday jarayonning guvoxi bo'lgan, zamonamizning ulkan adibi CH.Aytmatov xalqimizga nisbatan sodir etilayotgan bunday xarakatlarning mutlaqoadolatsizligini takidlab “Agar O'zbekistonning xamma paxtasini jamuljam qilib vagonlarga ortiladigan bo'lsa, yerdan Oyga qadar yetadigan eshelon zarur bo'lajagi xaqida ko'nglim o'sib xisoblab chiqqanman. Buning sira mubolag'a joyi yo'q, - deb yozgan edi. – O'zbek mexnatkashlari mamlakat uchun qilgan ishlarni aytaversak bo'lar bari boshimizni quyi egib tazim qilishga sazovordir. Qadim – qadim o'zbek madaniyatining O'rta Osiyoga ko'rsatgan tasirini ko'xna Vizantiyaning qadim Rusga ko'rsatgan tasiri bilan qiyoslash mumkin².

Umuman olganda, qayd etilgan dalillar xam “millatlarni yaqin kelajakda qo'shib yuborish” faqat – orzu niyat bo'lib qolmaganini uni ro'yobga chiqarish yo'lida aniq amaliy ishlar olib borilganini va ular oxir – oqibatda aksi milliy mazmun – moxiyatga ega siyosat asosiga qurilgan tuzumning xalokati uchun zamin tayyorlaganini ko'rsatadi.

Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas edi. “Temur Ko'ragon kabi doxiylarning, Mirzo Bobur kabi fotixlarning, Forobiyl, Ulug'bek va Abu Ali ibn Sino kabi o'sib – ungan va nashu namo qilganlari yurt o'lkani xalokat chuquriga

¹Ibrogimov M. Net naroda bez xrama || CHelovek i politika. 1991, 10-sون.

²CHingiz Aytmotov . Perestroyka, glasnost drevo vyjivaniya. || “Pravda”, 1988, 13-fevral.

qarab sudrag'uvchi, albatta tangrining qaxriga sazovordir”, - deb yozgan edi Abdulla Qodiriy. Adibning bu so’zlarida milliy tarix va o’zlikning dushmani bo’lgan, o’z mavjudligining dastlabki yillaridayoq mudxish qiyofasini namoyon eta boshlagan tuzumning qismati bashorat qilingan edi, deyish mumkin.

2. 2. Mustaqillik davrida O’zbekistonda millatlararo totuvlikning qaror topishi

YUqorida qayd qilinganidek, ko’p millatlilik mustaqil rivojlanish yo’lidan dadil olg’a borayotgan O’zbekiston uchun ham xosdir. Agar 1897 yilda mamlakatimizning bugungi xududida 70 millat va elat vakillari yashagan bo’lsa, 1926 yilda ularning soni 91taga yetdi. Bugungi kunga kelib, ularning soni 136 ta bo’lib. O’zbekiston axolisi tarkibidagi ulushi 20 foizni tashkil qiladi .

O’zbekistonga etnik guruxlarning mamlakat bo’ylab tarqoq yashashini ifodalaydigan ko’p millatlilik bilan bir qatorda, muayyan millatlar vakillarining alovida xududlarida zinch yashash holatini nazarda tutadigan mul’timillatlilik ham hosdir. Demak, oqilona tashkil etilgan milliy siyosat mamlakatimiz uchun ham muhim xayotiy axamiyatga ega.

Ma’lumki, millatlararo munosabatlar millatlar, elatlar, etnik gruxlarning o’zaro va turli etnoslar vakillarining shaxslarining aloqasi, munosabatidek ikki shaklda mavjud bo’ladi. Stukturaviy nuqtai nazardan esa, u ijtimoiy xayoti soxalariga mos ravishda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy munosabatlar ko’rinishida namoyon bo’ladi.

Mazkur holat birinchidan, jamiyat milliy tuzulishining tarkibiy qismi hisoblangan etnoslarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy madaniy ehtiyoj va manfatlarini ro’yobga chiqarish va oldindan ko’rish, ikkinchidan, millatlararo munosabatlarda kechayotgan jarayonlarni to’g’ri baholash hamda mavjut muammolarni hal qilishga qaratilgan, kompleks xarakturga ega chora-tadbirlarni

ishlab chiqishidek bir-biri bilan uzviy bog'liq ikki vazifani hal etishni taqoza etadi. Ularning muvafaqiyatli hal qilinishi milliy xayotda kechayotgan o'zgarishlarining xarakteri va yo'nalishini, nazoratini tashkil etish va yechish imkoniyatlarini beradi.

Qayd etilgan vazifalarning qanday maqsadlarni ko'zlab xal etilishi esa mohiyat-e'tibori bilan stixiyalilikka deyarli o'rinni qoldirmaydigan, ijobjiy yoki salbiy mazmunga ega millatlararo munosabatlar tilini shakllantirish asos bo'ladi. Xususan, milliy tungsizlik, o'zga millatlarga nisbatan bepisantlik bilan qarash, muayyan xollarda esa antagonizning ustuvorligi millatlararo munosabatlarning salbiy mazmunga egaligidan dalolat beradi.

Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Mamlakatimizga nisbatan tatbiqan olinganda esa, millatlararo munosabatlarning teng xuquqiylik, o'zaro xurmat, do'stlik va hamkorlikka asoslangan o'ziga xos sifatiy xolati millatlararo totuvlik qaror topganini alohida qabul etishi lozim. Boshqacha aytganda, oqilona tashkil etilgan milliy siyosat natijasida muayyan kuchlar alanga olishidan manfaatdor bo'lgan, mustabid tuzum davrida, oqilona tashkil etilgan milliy siyosat natijasida muayyan kuchlar kuchlar alanga olishidan manfaatdor bo'lgan, mustabir tuzum davrida darz keta boshlagan etnik munosabatlar istiqlol tufayli mutlaqo yangi asosda rivoj topdi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov bu haqda to'xtalib, "alohida g'urur va iftixor bilan ta'kidlab aytmoqchimanki, O'zbekistoning boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimi, eng yuksak qadriyatimiz, bu-jamiyatimizda xukm surayotgan tinchlik millatlararo do'stlik va hamjixatlikdir"¹ deb takidlagan edi.

Buni xorijlik mutaxislar ham e'tirof etishmoqda. YAponiyalik olim SHen Vashanabekning fikricha, milatlararo munosabatlar bilan bog'liq muammolarni

¹ Karimov I.A.Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 10 yilligiga bag'ishlangan tantanali majlis qatnashchilariga tabrik xafsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10 jild –T: "O'zbekiston", 2002, 181-bet

yechshida uch xil yo'l mavjud. Birinchi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarga xos bo'lib, u iqtisodiy farovonlikni ta'minlash, turli etnik guruxlarning moddiy ehtiyojlarini har tomonlama qondirishga asoslanadi. Iroq, Afg'oniston, sobiq YUGoslaviya kabi mamlakatlarda namoyon bo'lgan ikkinchi yo'l zo'rlikka tayanishi va har qanday milliylikni bostirishga intilishi bilan ajralib turadi. Uchinchi yo'lning eng yorkin timsoli O'zbekiston bo'lib unda millatlararo hamjihatlikni ta'minlashda milliylik va umuminsoniylikning eng yaxshi jixatlarini o'zida mujassam ztgan ma'naviyat, ta'lim, mehr muruvat kabi qadriyatlar negizi asoslanib, siyosat olib boriladi¹.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, yuqorida qayd etilgani nazariya va amaliyot shakllaridan farq qilgan O'zbekiston milliy siyosatining moxiyati I.A.Karimovning "Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin insoniyatning boyligidir va har qanday millat birlikning uning tili, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi,"² - degan so'zlarida o'zining yorqin ifodasini topgan, deyish mumkin.

O'zbekiston o'zi tanlagan bu yo'lning moxiyatini mustaqillikning ilk kunlaridanoq ochiq bayon qilib, bu borada tegishli huquqiy zamin yarata boshlagan edi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'richidagi Oliy Kengash Bayonotida O'zbekiston o'z xududida yashovchi barcha xalqlarga teng siyosiy xuquqlarni va ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishda imkoniyatlarni kafolatlashi, irqchilik, shovinizm, millatchilikni, xalqlarning huquqlarni cheklash yo'lidagi har qanday urinishlarga qat'ian qarshi chiqishi e'lon qilingan edi. Bunday qoida 1991 yilning 31 avgustida qabul qilingan

¹ Ubaydullayev R. Bekmurodov M. Prioritet lichnostnogo razvitiya Pravda Vostoka, 2004, 13 fevral

² Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqororlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997, 73-74 betlar

“O’zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to’g’risida”gi Qonunda ham mustahkamlab qo’yildi”¹.

Ayni paytda, Respublikamizda ko’p millatlilikka yaratuvchilik qudratiga ega bo’lgan omil sifatida qaratilganini alohida takidlash lozim. Ayrim salbiy sovet Respublikasidan farqli ravishda, istibdod davri yo’qotishlari uchun “aybdor” larning qidirilgani ham alohida ahamiyatga ega bo’ladi. “Istiqlologa erishgan xalq o’zgalarga zug’um qilmaydi,-deb yozadi I . A. Karimov ma’lumki, tayziq va taxqirdan qutulgan, o’z qadrini bilgan xalqimiz. O’z kuniga ishongan va o’zlariga hamdard bo’la olishgan qodir erkin halqimiz”².

Xalqimizga xos ko’p asrlik bag’rikenglik an’analari va bugungi insonpavarlik siyosatimizning maqsadini turli millatga mansub yurtdoshlarimizning so’zlaridan ham bilib olish mumkin. Navoiy viloyati Navoiy tumani “Narpay” shirkat xo’jaligida istiqomat qiluvchi. Saida Arutyunova shunday jinoyat qiladi: “Xamqishloqlarimizning oddiy va arman ayyoliga bildirgan izzat-ikromidan ko’nglim tog’day baland SHuncha yil yashab, xech qachon kelgandi yoki musofir deb kamsitganim yo’q”

II jaxon urushi davrlarida shu qishloqqa ko’chib kelgan Alisa Elinora esa “Hozir yoshman 78 da shu paytgcha hech kim nemis millatiga mansubligimni yuzimga solgan emas” deb fikr bildiradi.20 millatga mansub 10500 kishi istiqomat qilgan mazkur qishloqda yashamoqchi turli millat vakillari bo’lgan ushbu fuqarolarning fikrlarini ham Respublikamiz millat siyosatining mohiyatini aks ettiradi, deb bemolol aytishimiz mumkin.³

O’zbekiston o’zining milliy siyosat modelining tanlar ekan, mazkur sohada xalqaro huquqning ham sodiqligini e’lon qilgannini alohida qayd etish zarur.1992 yil 26 fevralda O’zbekiston Respublikasining Xelsinki yakunlovchi aqtiga imzo

¹ O’zbekiston Respublikasi: Mustaqil davlatning bunyod bo’lishi. – T. : O’zbekiston, 1992 , 7-8, 12, betlar

² Karimov I. A. O’zbekiston-kelajagi buyuk davlat -T.: O’zbekiston, 1992, 8-b.

³ Millat ravnaqi-Vatan ravnaqi. // Xalq so’zi, 2002, 31 oktyabr.

chekish marosimida so'zga chiqib, I.A.Karimov umumbashariy qadriyatlr, inson huquqlari va erkinliklarni ta'minlash, oz sonli millatlarni himoya qilish, millati va dinidan, ijtimoiy nasl- nasabi va mavqeidan qati-nazar, davlatning har bir fuqarosi uchun munosib tirmush sharoitini yaratish talablari bizga yaqin va tushunarli ekanini ta'kidlab, "men xalq va hukumat nomidan millatlarni himoya qilish, millati va dinidan, ijtimoiy nasl- nasabi va mavqeidan qati-nazar, davlatning har bir fuqarosi uchun munosib tirmush sharoitini yaratish talablari bizga yaqin va tushunarli ekanini ta'kidlab, "Men xalq va hukumat nomidan huquqiy demokratik davlat barpo etish yo'lida chaqirishning asosiy kafolati bo'lshi fuqarolar va millatlararo inoqlikni, fikr vijdon, din va e'tiqod erkinliklarini saqlab qolamiz va har tomonlama mustaqilligimiz deb atayman va bunga qatiy qarorlari deb atayman va bunga qati kafolat beraman¹" - degan edi.

Respublikamiz amalda shu qarorga qati rioya qilmoqda. Bu milliy siyosat Konstitutsiyamizda ham o'z ifodasini topgan:

- Milliy til, urf-odat va an'analar hurmat qilishini ta'minlash va ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- Fuqarolarning jinsi, irqi,millati, tili, dini, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoi kelib chiqishi, va mavkeidan kati nazar, tengligi; - Milliy mansubligidan qati nazar, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoi hayotidagi teng huquqlari ishtirokini kafolatlash, ularning konstitutsiyaviy huquqi va erkinliklariga qarash qaratilgan milliy, irqiy, diniy aralash va nizomni targ'ib qiluvchi faolyatiga yo'l qo'ymaslik;
- O'zbekiston Respublikasida ijtimoi hayot, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanishini ta'minlashdek asosiy ta'moyillar shaklida hayotga tatbiq etilmoqda.

Bular konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan va ta'biri joiz bo'lsa, "etnik rang" kasb etgan tamoyillardir. Aslida esa "O'zbekiston halqini

¹ O'zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo'lshi. –T.: O'zbekiston, 1992 , 4-bet.

millatidan qati nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”,¹ degan qoidadan kelib chiqilsa, Asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan xuquq va erkinliklar barchaga birdek tegishli ekani anglashdir.Demak, milliy siyoatimizning asosiy maqsadi qishloqlarimizning, etnik va boshqa belgilaridan qat'i nazar yagona O'zbekiston xalqi sifatida jipslashuvi va birligiga erishishdir.

O'zbekistonning milliy siyosat modemi uning tashqi siyosat sohasidagi faolyatida ham o'z ifodasini topgan.

Bu mamlakatlarimizning BMT va boshqa xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlarining hamkorlik, tinchlik, etnik mojarolarini tinch yo'l bilan hal qilish faolyatiga mos siyosat olib borilayotganda ham yaqqol ko'rinoqda.

Republikamiz millat va elatlar xuquq va erkinliklarni muxofaza qilishga doir xalqaro bitimlarni amalga oshirish xalqaro maydonda etnik birliklarning xuquqlarini ta'minlash masalasiga doir tamoillar ishlab chiqish jarayonida ham faol qatnashmoqda. Xususan, O'zbekiston fuqarolik va siyosiy xuquqlar to'g'risidagi xalqaro fakt, irqiy kamsitishlarning barcha turlariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, genotsit jinoyatlarining oldini olish va unga nisbatan jazolar to'g'risidagi konvensiya, millati, elati, dini yoki tili nuqtai nazaridan kam sonli bo'lgan guruhga mansub shaxslarning xuquqlari to'g'risidagi deklaratsiya kabi qator xujjatlarni imzolagani ham mazkur yo'nalishdagi harakatlar ko'lagini belgilab beradi.²

YUqorida qayd qilingan tamoyillarga asoslangan va oqilona tashkil etilgan siyosat tufayli millatlardan qati nazar, barcha

fuqarolari jamiyatimiz ijtimoi-siyosiy, manaviy hayotida faol ishtirok etib, mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lida samarali mehnat qilib kelmoqda. Ular O'zbekistonni o'z Vatan, taqdiri O'zbekiston taqdiri tutash, o'z milliy madaniyatlari rivojini O'zbekiston taraqqiyotining uzviy qismi deb bilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2012, 19-bet.

² Prava cheloveka. Vipusk1. –T.: 1997, 5-6-betlar

Fidokorona mehnati va ijtimoiy hayotidigi faol ishtiroki uchun Vatanimizning oliv mukofoti “O’zbekiston qaxramoni” unvoni bilan bir qatorda, rus, tojik, ukrain, qozoq, koreys, arab mamlakatlariiga mansub yurtdoshlarimizning borligiga uning yorqin misolidir.

YAqin o’tmishda xar bir xalqning o’z tarixi, madaniyati, tili, ananalarini bilish va o’rganishga bo’lgan qiziqishning ortib borishi millatchilikning o’sishi deb baxolanar edi.

Bundan farqli o’laroq, mustaqil respublikamizda milliy – madaniy extiyojlarni qondirish, etnik qadriyatlarni asrab avaylash va rivojlantirishga intilish tabiiy – tarixiy jarayon sifatida baxolanmoqda. SHundan kelib chiqib, o’tgan yillar davomida etnomadaniy o’ziga xosliklarni saqlab qolish va rivojlantirish uchun tegishli shart – sharoitlarni yaratish bilan bir qatorda:

- xalqlar do’stligi, millatlararo totuvlik va yakdillik g’oyalarini muntazam targ’ib – tashviq qilish, vatanparvarlik xis – tuyg’ularini o’stirib borish;

- etnomadaniy anana va qadriyatlar rang – barangligini saqlab qolish, ularni o’rganish va amallashtirishni rag’batlantirish;

- turli millat va elatlar vakillarining mamlakat ijtimoiy – madaniy xayotida to’laroq ishtirok etishida yordam beradigan uyushmalar, folklor dastlabki, ansambllar va boshqa jamoa birlashmalari ishini yanada faollashtirishdek vazifani xal qilishga aloxida etibor berilganini qayd etish lozim.

Davlat o’zini demokratik, dunyoviy davlat deb elon qilgani bilan millatlararo munosabatlar, milliy til, madaniyat, urf – odat va qadriyatlarni rivojlantirish bilan bog’liq muammolar o’z – o’zidan yo’q bo’lib ketmaydi. Birgina misol, 2004 yilda AQSH ning Sietl shaxrida bo’lgan lingvistlarning xalqaro anjumanida keltirilgan malumotlarga ko’ra, 2050 yilga kelib, xozirda mavjud 6800 tilning yarmi yo’q bo’lib ketishi mumkin. Mavjud jami tillarning 6100 tasida (90 foiz) gaplashadigan kishilarning umumiy soni 100 mingdan oshmaydi. 46 tilda

bittadan, 357 tilda elliktadan gapiradigan odam qolgan, xolos¹. Demak, xuquqlarni deklaratsiya qilish bilan bir qatorda ularni amalga oshirish yo'lida konkret ishlar qilinsagina, tenglik real xarakter kasb etadi, mavjud muammolarni xal qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatimizda turli millat va elat vakillarining manaviy – marifiy ehtiyojlarini to'laqonli qondirish, ularning urf – odat va ananalari rivojiga xar tomonlama shart – sharoit yaritish maqsadida Respublika baynalmilal madaniyat markazi tuzilgani, milliy madaniyat markazlar faoliyatiga keng yo'l ochib berilgani muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Agar 1991 yilda ularning soni bor yo'g'i 10 ta bo'lsa, 2005 yilga kelib Respublikamizda 27 millat 138, hozir esa ularning soni 150 dan ortiqdir. Jumladan, koreyslarning 31 ta, ruslarning 23 ta, tojiklarning 10 ta, qozoqlarning 9 ta, tatarlarning 3 ta, ozarbayjonlarning 8 ta, turkmanlarning 7 ta, ukrain va qirg'izlarning 6 tadan, turklar va yaxudiylarning 5 tadan, nemislar, polyaklar va armanlarning 4 tadan, uyg'ur va Buxoro yaxudiyilarining 3 tadan, belorus va qrim tatarlarining 2 tadan, arablar, bolgarlar, boshqirdlar, greklar, gruzinlar, litvaliklar, qoraqalpoqlar, xitoylar va dunganlarning 1 tadan milliy – madaniy markazlari yurtimizda faoliyat ko'rsatmoqda². Ular o'zlari mansub bo'lgan etnosning tili, madaniyati, urf – odatlari, ananalarini saqlab qolish va rivojlantirish, millatlararo totuvlikni taminlashga munosib xissa qo'shib kelmoqda.

“Hech mubolag’asiz aytish mumkinki, - deb takidlagan edi I.A.Karimov, - mamlakatimizda istiqomat qilayotgan xar bir xalq va millatning etnik o'ziga xosligi, tili, urf – odati, ananalarini saqlashga muhim rol o'ynaydigan milliy – madaniy markazlarning faoliyatini rivojlantirish uchun bugun barcha shart – sharoit xamda imkoniyatlarni yaratar ekanmiz, bu bilan biz odamlarning tinch va

¹ V XXI veko na Zemle ischeznut 3400 yazikov // Zerkalo XXI, 2004, 13 (221).

² Xudoyberdiyev X. O'zbekiston mustaqilligi davrida millatlararo totuvlik // Ilm-fan chashmasi 2011, 30 sentyabr.

osoyishta hayoti, ertangi kunga ishonchining mustahkam poydevorini bunyod etgan bo'lamiz”¹.

Aytish mumkinki, milliy – madaniy markazlar o’z oldilaridagi ana shu masuliyatni his qilgan holda faoliyat ko’rsatmoqda.

Birinchidan, ular milliy qo’shiq, raqs, ananalarni saqlab qolish va rivojlantirish yo’lida amaliy ishlarni bajarmoqda. Milliy – madaniy markazlar qoshida qirg’izlarning “Sayra Qomuz”, ukrainlarning “Djerello”, dunganlarning “CHinmyo” folklor ansambli kabi 40 dan ortiq badiiy jamoalar faoliyat ko’rsatgani bunga misol bo’la oladi.

Ikkinchidan, professional sanat namunalarini targ’ib qilishga alohida etibor berilmoqda. Qozoqlarning “Koktem”, armanlarning “Xoravaq – shou”, ruslarning “Tryadushiye”, nemislarning “YUgenshbern”, mesxeti turklarining “Miko” teatr – studiyalari, ruslaring “Veteran”, polyaklarning “Plyast”, beloruslarning “Katyusha”, yaxudiylarning “SHalom”, kabi xor jamoalari va cholg’u asboblari orkestri kabi 30 dan ortiq badiiy jamoalar faoliyatida buning isbotini ko’rish mumkin.

Uchinchidan, har bir millat istiqboli tabiiy ravishda yoshlar bilan bog’liq. SHu nuqtai nazardan qaraganda, milliy – madaniy markazlar yoshlarni milliy madaniyatga muhabbat, etnik qadriyatlarni o’rganish va ezozlashga muhabbat ruhida tarbiyalashga alohida etibor bermoqda. Buni ruslarning “Topatushki”, koreyslarning “Sa – mul”, nemislarning “Nashi xoroshki”, polyaklarning “Mazurcheck” kabi jami 15 ga yaqin bolalar ansambllari faoliyatida ko’rsa bo’ladi.

Milliy – madaniy markazlarning qayd etilgan yo’nalishlardagi faoliyati, bir tomondan, diaspora vakillarini milliy tarix, urf – odat va ananalardan xabardor qilishga boshqa tomonidan, etnik o’z – o’zini anglashga tasir qilib, milliy birlikning mustaxkamlanishiga xizmat qilmoqda.

¹ Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10- jild. –T.: “O’zbekiston”, 2002 , 182-bet,

Talim tizim millatlararo totuvlik g'oyasini singdirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm tasir qilishi bilan bir qatorda, tabir joiz bo'lsa, millatlararo munosabatlarning ahvolini ko'rsatuvchi o'ziga xos lakkus qog'ozi hamdir.

SHunday ekan, talim tizimda ijtimoiyadolat ustuvorligini asosiysi, bu mezonlar hamisha aniq ko'rinishga ega bo'ladi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, milliy siyosatimizda talim bilan bilan bog'liq masalalarga alohida etibor berilmoqda. Xususan, mamlakatimizda o'rtalagi va oliy talim 7 tilda olib borilayotgani (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman), milliy tillarda bog'chalar, maktablar tizimini rivojlantirish, ularni pedagogik kadrlar va zaruriy o'quv dasturlari hamda darsliklar bilan taminlashga alohida etibor berish milliy siyosatimizda markaziy o'rinni egallaganini takidlash joiz.

Ayni paytda, mustaqillik milliy hayotda mutlaqo yangilik bo'lgan yakshanba maktablarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga zamin yaratganini qayd etish zarur. Aynan yakshanba maktablari respublikamizda yashovchi diasporalarga o'z ona tillari, millat tarixi va madaniyatini o'rganish uchun imkoniyat yaratib bermoqda. Masalan, arman madaniy markazi qoshidagi yakshanba maktabida bugungi kunda arman tili va adabiyoti bilan bir qatorda halq xoreografiyasi hamda folkloridan talim beriladi.

Polyak, ukrain, grek milliy – madaniy markazlari qoshida tashkil etilgan yakshanba maktablarida tahsil olgan o'nglab yoshlar bugungi kunda Polsha, Ukraina, va Gretsya oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqda.

Kamsonli diasporalarning o'z tillari, tarixi va madaniyatini o'rganishi haqida gap ketar ekan, mamlakatimizda yashovchi yahudiylar uchun ham xuddi shunday imkoniyat yaratilganini takidlash zarur. Xususan, Toshkent, Buxoro va Samarqand shaxarlarida tashkil etilgan maktablarda yahudiy millatiga mansub bolalar ivriy tili, yahudiy xalqi tarixi, madaniyatini o'rgana boshlangani mustaqillik bergen imkoniyatlar samarisidir.

Oliy talim tizimida esa o'qish milliy tillarda olib boriluvchi maxsus fakultet va bo'limlar faoliyati ko'rsatmoqda. Xususan bir qator o'quv yurtlarda rus, tojik, qozoq, turkman filologiyasi fakultetlari, pedagogika va boshlang'ich talim metodikasi mutaxassislari tayyorlovchi bo'limlar mavjudligi fikrimizning dalilidir. Umuman olganda, qardosh tillarda faoliyat ko'rsatayotgan fakultet va bo'limlarning 30 foizi mustaqillik sharoitida tashkil etilganligini takidlash zarur.

YUqoridagi misollar respublikamizdagi har bir millat vakilining istedodi va salohiyatini ro'yobga chiqarish, qadriyat, ananalarini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan milliy siyosatimizning asosiy tamoyillari hayotda o'zining aniq yechimini topayotganligining isbotidir.

XULOSA

Mamlakatimiz xalqlarining, xususan o'zbek xalqi va uning ajdodlarining manaviyati uzoq o'tmishga borib taqaladi. Jumladan, brtboshimiz I.A.Karimov yurtimizda shakllangan davlatchilikni uch ming yildan ham ortiqroq shakllanganligini qayd qiladilar. Xalqimiz manaviyati undanda oldinroq shakllana boshlagan. Lekin yurtimizdagi mavjud boyliklarga qarshi, kurolmagan, xasadguy, bosqinchilar, bu boyliklarni egallahsha ko'p marotaba xarakat qildilar. YUrtimizni, eroniylar, makedoniylar, kushaniylar, arablar, mug'ullar, ruslar va boshqalar toptadilar, boyliklarini taladilar. Maxalliy xalq ma'naviyatini susaytirishga intildilar.

Buning ustiga mamlakatimiz xududi buyuk ipak yo'li chorraxasida joylashganligi turli sabab va oqibatlar tufayli kuphalqli, kup millatli, ko'p ellatli maskanlardan biriga aylandilar.

O'zbekiston tarixini o'rghanish shuni ko'rsatadiki mamlakatimiz hududida turli millat va ellatlar o'rtasida xech qanday nizolar, kelishmovchiliklar sodir bo'lman. Bu esa yuksak ma'naviyatning bu yurtda umrguzaronlik qilgan barcha xalqlar, millatlarga, ellatlarga kuchli ta'sir qilganligidan darak beradi.

Bizning bitiruv malakaviy ishimiz shu jarayon haqida tadqiqot qilishimizni talab qildi. Ushbu mujazgina tadqiqotimizda muljallangan masalalarni bayon etish jarayonida qo'yidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan xar qanday inqiroz, buhron, nizo, razil va yaroqsiz xarakatlarni bartaraf etishda muxim omil hisoblanadi. Aksincha qayerda ma'naviyatsizlik mavjud bo'lsa usha yerda razillik,adolatsizlik, millatchilik, milliy nizo, milliy ziddiyatlar sodir bo'laveradi. SHu ma'noda I.A. Karimov "Ma'naviyat- insonni ruxan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigon beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining me'zonidir", deb baholagan edi:

Ikkinchidan, insoniyat tarixida ijtimoiy taraqqiyotga qarab kishilarning tarixiy birliklari shakllanadi va rivojlanadi. Ularning eng yuksak bosqichi millatdir .millatlar ijtimoiy taraqiyotga qarab shakllangan, burxon inqirozlar ularni ba'zantartqatib yuborgan. Prof.Q. Xonazarov “ millat deganda umumiyl tilda so'zlashib, bir butun umumiyl xududda istiqomat qilib turgan, birga iqtisodiy xayot kechiradigon, umumiyl madaniy, ma'naviy va ruxiy muxitga ega kishilarning tarixan shakllangan barqaror birligini” tushunadi:

Uchinchidan, millatlar eng qadimiyl, qadimiyl, va o'rta asrlar millatlari,yangi zamon millatlari sifatida shakllangan va xozirgi davrda dunyoda 7000 ga yaqin millat, ellatlar mavjud:

To'rtinchidan, dunyodagi mamlakatlarning aksariyati ko'p millatli 20 ga yaqin esa ozmillatli mamlakat xisoblanadi.Turli ijtimoiy tarixiy o'zgarishlar tufayli, ayrim xolda notug'ri milliy siyosat yuritishi natijasida kupmillatli mayekanlar, hududlar, mamlakatlar vujudga keldi. Hozirgi dunyoda sodir bulayotgan globallashuv xodisalari bu soxaga xam ijobiy xam salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:

Beshinchidan, yaqin o`tmishda sobiq ittifoqda o'tkazilgan milliy siyosatdagi zo'rovonlik, Fransiya, AQSHning Vietnam va boshqa hududlarda olib borgan siyosatini oqlamadi:

Oltinchidan, millatlararo munosabatlarda yuksak ma'naviyatga asoslangan miliy siyosat xaqidagi O'zbekiston modeli xayotda amaliy tasdiqlandi, ma'naviyat tamoillari asosida turli millatlar xamjixatligini qaror toptirdi:

Yettinchidan, ma'naviyat tamoillari asosida O'zbekistonda yashayotgan boshqa millat va ellat vakillari xam o'zaro ta'sir va yaxshi kafolatli munosabatlar asosida rivojlanib bormoqda:

Sakkizinchidan ko'p millatli mamlakatlarda muxim ma'naviy xodisa “Yagona vatan” g'oyasini amalda joriy qilish xisoblanadi. Natijada O'zbekistonda

yashayotgan 136 millat ellat vakillari O'zbekistonni o'z tarixiy Vatanim deb baxolamoqdalar.

Taklif va tavsiyalar

1. Mamlakatimizda kupmillatlilik XXI asirdagi real xolatini aniqlash zarur. Buning uchun yaqin kelajakda respublikamizda “axoli ruyxatini o'tkazishni maqsadga muofiq deb xisoblaymiz.

2. O'zbekiston kupmillatli mamlakatlardan biri. Bu jarayonni yanada mustaxkamlash uchun, millatlar va ellatlar o'rtasida xam jixatlik, bag'rikenglik masalalarining samaradorligini oshirish uchun Respublika ilmiy- amaliy kanferensiyasini markaziy oliv o'quv yurtlaridan birida, xususan Toshkent davlat pedagogika universitetida o'tkazishni ham taklif qilamiz.

3. Respublikamizning turli hududlarida hali kuplab kupmillatli, ko'p ellatlari korxonalar, jamoalar mavjud. SHu boisdan ulardagi millatlaaro munosabatlarining xolatini aniqlash maqsadida yetakchi mutaxassislar ishtirokida konkret sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni lozim deb xisoblaymiz.

4. Respublika omaviy axborot vositalarida kup millatli jamoa, korxonalar tug'risida turkum maqolalar, radiotele eshittirishlar amalga oshirilishini taklif qilamiz.

Bizning tavsiyalarimiz:

1 Millatlararo munosabatlarni yanada yuqori saviyada olib borish uchun oliv uquvv yurtlarida iqtidorli, iste'dodli , mashxur vakillari bilan talabalarning uchrashuvlarini o'tkazib turish an'anaga aylantirilsa.

3. Mamlakatimizda yashayotgan turli millat vakillari mashxur adib, shoirlarning baddiy asarlari, shu xalqlar tarixiy Vatanlari xaqida tarixiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib nashr etilishlarini tavsiya qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996. – 364 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston, 1996. – 380 b.
3. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996. – 366 b.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. – T.:O'zbekiston, 1996. – 349 b.
5. Karimov I.A. YAngicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5. – T.: O'zbekiston, 1997. –382 b.
6. Karimov I.A Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. T.6. – T.: O'zbekiston, 1998. – 429 b.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999. – 410 b.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: O'zbekiston, 2000. – 528 b.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. – T.: O'zbekiston, 2001. – 432 b.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. T.10. – T.: O'zbekiston, 2002. – 430 b.
11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003. – 320 b.
12. Karimov I.A. Tinchlik va havfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 400

b.

13. Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. T.13. – T.: O’zbekiston, 2005. – 448 b.
14. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliv qadriyat. T.14. – T.: O’zbekiston, 2006. – 280 b.
15. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va halqimiz hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. – T.: O’zbekiston, 2007. – 320 b.
16. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo’lida. T.16. – T.: O’zbekiston, 2008. – 368 b.
17. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minalash – bizning oliv maqsadimiz. T.17. – T.: O’zbekiston, 2009. – 280 b.
18. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko’tarilish sari. T.16. – T.: O’zbekiston, 2010. – 280 b.
19. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko’tarilish sari. T.18. – T.: O’zbekiston, 2010. – 262 b.
20. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – T.: O’zbekiston, 2011. – 348 b.
21. Karimov I.A. Bizning yo’limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo’lidir. T.20. – T.: O’zbekiston, 2012. – 320 b.
22. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat’iyat bilan davom ettirish yo’lida. T.21. – T.: O’zbekiston, 2013. – 416 b.

23. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. – T: O’zbekiston, 2010. – 56 bet.

24. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqilikka erishish ostonasida. – T: O’zbekiston, 2011. – 56 bet.

25. Karimov I.A. YUksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

II. Asosiy adabiyotlar

1. Ochildiyev Abduvohid. Milliy g’oya va millatlararo munosabatlar.-T.: «O’zbekiston» -2204.-133

2. Abdulatipov R.G. CHelovek. Natsiya, Obshestvo. -M.: Politizdat, 1991.-224 s.

3. Azizzo’jayev A.A. Demokratiya-xalq hokimiyyati demakdir.-T.: SHarq, 1996.-23 b.

4. Aripov M.K. Sotsialnaya utopiya kak techeniye obhestvenno-filosofskoy myсли v Sredney Azii.-T.: Fan,1989.

5. Atamirzayev O. Genshtke V.,Murtazayeva. R. Uzbekistan mnogonatsionalno’y istoriko-demograficheskiy aspekt.-T.:Ibn Sino,1998.-159. s.

6. Atamurodov S. Natsionalnoye samosoznaneniye i internatsionalnoye vospitaniye. -T.: Uzbekiston,1991.-124 s.

7. Axmad Zakiy Validiy To’g’on. Bo’linganni bo’ri yer: Turkiston xalqlarinig milliy mustaqilligi uchun kurashi tarixidan: Xotiralar-Boshqird tilidan SH.Turdiyev tarj.-T.: Adolat,1997, 280 bet.

8. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturini “ amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar).-T.:SHarq,1998.-184 bet.

9. Boboyev H., G’ofurov Z. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot.-T.: YAngi asr avlodi, 2001.-212 b.

10. Geldiyeva A.CH. Natsionalnaya kultura i lichnost. -T.: Uzbekistan, 1993.-103 s.
11. Dadaxonova K.X.Raximov S. Problemy internatsionalzatsii i mejnatsionalnaya spravedlivost. -T.: Uzbekiston, 1992.
12. Djunusov M.S. Natsionalizm v razlichnyx izmereniyax. -Alma-ata, Kazakhstan, 1990.-200 s.
13. Jumayev R.Z. Davlat va jamiyat: Demokratlashtirish yo'lida:-T.: SHarq, 1998.-144 b.
14. Ibrohimov. A.,Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi.-T.:O'zbekiston,1996.
15. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari.-T.: SHarq, 1996.-144 b.
16. Islom: bag'rikenglik va mutassiblik.-T.: Universitet, 1998.-128 b.
17. Karimov B., Mira'zamov K. Millat ravnaqi va til muammolari. -T.: Fan, 1993.-27 b.
18. Karimov R.K., Karimov A.T. Milliy model muammolari.-T.: Uzbekiston, 1993. -64 b.
19. Millatlararo hamjihatlik-barqarorlik omili.-T.: 1999.-266 b.
20. Milliy g'oya-bizning g'oya.-T.: 2001.-139 b.
21. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.:2000.-80 b.
22. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at.-T.: SHarq, 2006.-528 b.
23. Mustaqillik-bu xuquq. (Ma'sul muharrir va so'z boshi muallifi: A.Saidov)-T.: O'zbekiston, 1997. 224 b.
24. Nishanov M.N. Obnovleniye duxovnoy jizni natsiy. -T.: Fan, 1991.-106 s.
25. Natsionalnye otnosheniya. Slovar (Pod obhey redaksiyey A.L. Kalashnikova).-M.: Vlados, 1997.-208 s.
26. Toffler E. Tretya volna. -M.: Ast, 1999.-784 s.

27. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.-T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-224-bet.
28. SHermuxamedov S. Na yazylke yedinstva. -T.: O'zbekiston, 1991. -187 s.
29. YUsupov E., Tulenov J., G'ofurov Z. Milliy masala bo'yicha falsafiy suhbatlar.-T.: Fan, 1990.-142 b.
30. Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. -T.: "O'AJBNT" Markazi, 2001. -72 b.
31. O'zbekiston millatlararo hamjihatlik yo'lida. -T.: Universitet, 1996. -168 b.
32. O'zbekistonning yangi tarixi. K.3. Mustaqil O'zbekiston tarixi. -T.: SHarq, 2000-560 b.
33. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiylar, madaniyatlar va mafkuralar.-T.: SHarq, 1997.-160 b.